BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

# O'ZBEK FALSAFASI

2023

Sharipov A.Z. falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

# “O‘ZBEK FALSAFASI”

MODULI BO‘YICHA

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Falsafa**

**Buxoro-2023**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** **A.Z.Sharipov** falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

**Taqrizchi:** **B.B.Namozov** falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan**
***(2022 yil “30” dekbardagi 5-sonli bayonnoma)***

# MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR .......................................................................................... 5

II. MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL

TA’LIM METODLARI ........................................................................... 12

III. NAZARIY MATERIALLAR ................................................................... 18

IV. AMALIY MAShG‘ULOT MATERIALLARI ..................................... 112

V. GLOSSARIY ........................................................................................... 127

VI. ADABIYoTLAR RO‘YXATI ................................................................ 153

# I. IShChI DASTUR

## Kirish

“O‘zbek falsafasi” moduli hozirgi kunda mantiq va tafakkurni shakllantiruvchi fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish, logika ilmidagi so‘nggi yutuqlar, muammolarni o‘rganish va ta’lim berish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha, hamda ularning kelajakdagi o‘rni masalalarini qamraydi.

## Modulning maqsadi va vazifalari

**«O‘zbek falsafasi» modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarining bu borada mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda to‘plangan mantiq ilmi, uni o‘qitishning zamonaviy usullarini o‘rganish, amalda qo‘llash, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

**«O‘zbek falsafasi» modulning vazifalari:**

- falsafa yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- mutaxassislarni kasbiy etiket va kasb estetikasini oshirishning zamonaviy usullarini tadbiq qilish;
- Etikaning dolzarb masalalari va estetik didning shakllanishiga oid tamoyillarning ahamiyatini ochib berish;
- falsafa yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

## Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetentligiga qo‘yiladigan talablar

«O‘z**bek falsafasi**» modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

milliy falsafa muammolarini va uning rivojlanish istiqbollarini;

- o‘zbek falsafasining joriy holati va istiqboldagi vazifalarini;

- - o‘zbek falsafasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini;

- ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash vazifalarini ***bilishi kerak***.

**Tinglovchi:**

- ilmiy-tadqiqot ishlarida milliy falsafaning zamonaviy masalalariga yondashish uslubiyatini to‘g‘ri tanlash;

- - jamiyat ma’naviy hayoti hamda insonlararo munosabatlarni zamonaviy muammolar bilan bog‘liq holda o‘rganish, ularni tahlil qilishga ilmiy yondashish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

**Tinglovchi:**

- falsafiy bilimlarni o‘rganish orqali diskursiv (asoslangan) fikr yuritish;

- falsafaning zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;

- globallashuv jrayonidgi muammolarini aniqlash va tahlil qilish;

- fanning ilmiy, nazariy, tarixiy va progmatik ahamiyatini hayotiy voqelik va ilmiy asosda tushuntirib berish;

- falsafiy manbalardan zarur va muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ajratib olish, ularni izchil tizimga keltirib, talqin qilish ***malakalariga ega bo‘lishi lozim.***

**Tinglovchi:**

- o‘zbek falsafasi fanida innovatsion o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;

- milliy falsafa fanining insoning jamiyatda tutgan o‘rni, yashashdan maqsad kabi masalalarni tahlil qilish va bugungi kun bilan taqqoslash;

- o‘zbek falsafasining dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

**Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

«O‘zbek falsafasi» moduli o‘quv rejadagi boshqa modullar va mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning bu soha bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

**Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar falsafa va falsafiy fanlarini o‘qitishda zamonaviy usullar yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuv asoslari va bu boradagi ilg‘or tajribalarni o‘rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy layoqatga ega bo‘lish,

ilmiy-tadqiqotda innovatsion faoliyat va ishlab chiqarish faoliyati olib borish kabi kasbiy kompetentlikka ega boʻladilar.

**Modul boʻyicha soatlar taqsimoti**

<table>
<tr><th rowspan="4">№</th><th rowspan="4">Modul mavzulari</th><th colspan="4">Tinglovchining oʻquv yuklamasi, soat</th></tr>
<tr><th rowspan="3">Hammasi</th><th colspan="3">Auditoriya oʻquv yuklamasi</th></tr>
<tr><th rowspan="2">Jami</th><th colspan="2">jumladan</th></tr>
<tr><th>Nazariy mashgʻulot</th><th>Amaliy mashgʻulot</th></tr>
<tr><td>1.</td><td>Oʻzbek falsafasining tarixiy ildizlari.</td><td>4</td><td>4</td><td>2</td><td>2</td></tr>
<tr><td>2</td><td>Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati.</td><td>2</td><td>2</td><td></td><td>2</td></tr>
<tr><td>3</td><td>XX asr oʻzbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi.</td><td>4</td><td>4</td><td>2</td><td>2</td></tr>
<tr><td>4</td><td>«Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» oʻzbek falsafasining zamonaviy konsepsiyasi.</td><td>4</td><td>4</td><td>2</td><td>2</td></tr>
<tr><td>5</td><td>Oʻzbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yoʻnalishlari.</td><td>4</td><td>4</td><td>2</td><td>2</td></tr>
<tr><td></td><td>Jami</td><td>18</td><td>18</td><td>8</td><td>10</td></tr>
</table>

## NAZARIY MAShGʻULOTLAR MAZMUNI

### 1-mavzu. Oʻzbek falsafasining tarixiy ildizlari.

**Reja:**

1. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” oʻzbek falsafasining poydevori sifatida.

2. Oʻzbek falsafasi genezisi evolyusiyasida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining oʻrni.

3. Temuriylar davri ilm-fan taraqqiyoti oʻzbek falsafasining yangi bosqichi sifatida.

4. Ma’rifatparvarlar va jadidlarning o‘zbek falsafasining yanada rivojlanishidagi roli.

## 2-mavzu. XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi.

**Reja:**

1. XX asr o‘zbek falsafasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Milliy falsafani shakllantirishning yangi konseptual-metodologik yo‘nalishlari.
3. Mustaqillik yillarida o‘zbek falsafasini yangicha talqin etishning o‘ziga xos masalalari.
4. Harakatlar strategiyasi-o‘zbek falsafasining yangi bosqichi.

## 3-mavzu. «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiyasi.

**Reja:**

1. O‘zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘li. Milliy tiklanish bosqichi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. O‘zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida jamiyat rivoji va ta’lim-tarbiya masalalariga doir yangicha g‘oya va qarashlar.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi – milliy yuksalishning asosi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalari.

## 4-mavzu. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo‘nalishlari.

**Reja:**

1. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilib borishining falsafiy muammolari
2. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar hamkorligi
3. Dunyoning nufuzli reytinglarida O‘zbekiston Respublikasining yuqori o‘rinlarda

qayd etilishi

4. Harakatlar strategiyasi jahon sivilizatsiyasiga kirib borishning muhim omili

## AMALIY MAShG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-mavzu. O‘zbek falsafasining tarixiy ildizlari.

**Reja:**

1. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” o‘zbek falsafasining poydevori sifatida.
2. O‘zbek falsafasi genezisi evolyusiyasida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o‘rni.
3. Temuriylar davri ilm-fan taraqqiyoti o‘zbek falsafasining yangi bosqichi sifatida.
4. Ma’rifatparvarlar va jadidlarning o‘zbek falsafasining yanada rivojlanishidagi roli.

### 2-mavzu. Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati.

**Reja:**

1. Globallashuv muammosining falsafiy tahlili.
2. Globallashuv jarayonlarida dunyoqarash va ijtimoiy ong o‘zgarishi masalasi.
3. Globallashuv davrida yangicha tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari.
4. Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash konsepsiyasi globallashuvning oldini olish mexanizmi sifatida.

### 3-mavzu. XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi.

**Reja:**

1. XX asr o‘zbek falsafasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Milliy falsafani shakllantirishning yangi konseptual-metodologik yo‘nalishlari.
3. Mustaqillik yillarida o‘zbek falsafasini yangicha talqin etishning o‘ziga xos

masalalari.

4. Harakatlar strategiyasi-o‘zbek falsafasining yangi bosqichi.

## 4-mavzu. «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiyasi.

**Reja:**

1. O‘zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘li. Milliy tiklanish bosqichi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

2. O‘zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida jamiyat rivoji va ta’lim-tarbiya masalalariga doir yangicha g‘oya va qarashlar.

3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi – milliy yuksalishning asosi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalari.

## 5-mavzu. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo‘nalishlari.

**Reja:**

1. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilib borishining falsafiy muammolari.

2. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar hamkorligi.

3. Dunyoning nufuzli reytinglarida O‘zbekiston Respublikasining yuqori o‘rinlarda qayd etilishi.

4. Harakatlar strategiyasi jahon sivilizatsiyasiga kirib borishning muhim omili.

## II. MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### “FSMU” METODI

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:




- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga asos boʻladi.

**Darsda foydalaniladigan texnologiya**: **“FSMU”**

**Darsning borishi:**

*1. Tashkiliy qism.*

*2. Tinglovchilarni amaliy mashgʻulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.*

Darsni oʻqituvchi kirish soʻzi bilan ochadi. U kirish soʻzida amaliy mashgʻulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda ilohiyot falsafasining mohiyati, taraqqiyoti hamda axloqiy tarbiya, inson ma’naviy dunyoqarashga taxdid solayotgan ommaviy madaniyatdan asrovchi xususiyatlari borasida suhbat olib boriladi, tahlil qilinadi.

**“FSMU” metodining oʻtkazilishi**

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga asos boʻladi. Eshituvchilar kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, oʻzlarining FSMU modellarini tuzadilar. Umumiy modelga keltiradilar.

Ish natijalarining taqdimoti. Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit soʻzlar va iboralardan iborat boʻlishi kerak. Dalillar mavhum fikrlash toʻgʻrisida emas, balki aniq mexanizm toʻgʻrisida gapirishga imkon beradi.

Ish (izlanish) yakka tartibda yoki kichik guruhlarda oʻtkazilishi mumkin. Muammolarning oʻzaro aloqasi, ularning umumiy xususiyatini namoyon etuvchi toʻldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

## AQLIY XUJUM METODI

**Aqliy xujum** - gʻoyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy xujum» metodi biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildi - rilgan erkin fikr va mulohazalarni toʻplab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy xujum metodining yozma va ogʻzaki shakllari mavjud. Ogʻzaki shaklida oʻqituvchi tomonidan berilgan savolga ta -labalarning har biri oʻz fikrini ogʻzaki bildiradi. Talabalar oʻz javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talaba - lar oʻz javoblarini qogʻoz kartochkalarga qisqa va barchaga koʻrinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar boʻyicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod toʻgʻri va ijobiy qoʻllanilganda shaxsni erkin, ijodiy va no - standart fikrlashga oʻrgatadi.

Aqliy xujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati boʻladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar oʻz fikrini faqat ogʻzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish koʻnikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli gʻoyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**Vazifasi.** “Aqliy xujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni koʻrish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilli - ligini yoʻqotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga oʻtiladi va guruh yanada jipslashadi.

**Ob’ekti.** Qoʻllanish maqsadiga koʻra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), oʻqitish jarayonida

(o‘quv materiallarini tezkor o‘zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o‘z-o‘zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllanti - radi) asqotadi.

**Qo‘llanish usuli.** “Aqliy xujum” ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o‘z fikrlarini qay - tadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilin - maydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jixatiga ko‘ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

«Aqliy xujum» metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda - yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda - mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

**«Aqliy xujum» metodining afzallik tomonlari:**

**1.** natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr-g‘oyalarning shakl - lanishiga olib keladi;

**2.** talabalarning barchasi ishtirok etadi;

**3.** fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

**4.** talabalarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

**5.** talabalarda mavzuga qiziqish uyg‘otish mumkin.

**«Aqliy xujum» metodining kamchilik tomonlari:**

- o‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- o‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

## «Aqliy xujum» metodining tarkibiy tuzilmasi




## «Aqliy xujum» metodining bosqichlari:

1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Talabalar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Talabalarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

## «Aqliy xujum» metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

a) Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

b) Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

v) Bildirilgan fikr-g‘oyalarni to‘ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

## Mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va iboralar

Замонавий таълим воситаси тушунчаси , таълим воситаси турлари, таълим воситасини қўллаш усуллари

**Кластер**
Кластер - (ўрам, боглам). Билимларни актуаллашишини рагбатлантиради, мавзу бўйича фикрлаш жараёнига янги бирлашган тассавурларни очик ва эркин кириб боришига ёрдам беради.

«Кластерни тузиш коидалари» билан танишадилар. Катта когознинг марказига калит сўзи ёзилади.

Калит сўзи билан бирлашиши учун унинг ён томонларига кичик айланалар ичига «йўлдошлар» ёзилади ва «Катта» айланага чизикчалар билан бирлаштирилади. Бу «йўлдошлар» нинг «кичик йўлдошлари» бўлиши мумкин ва х.о. Мазкур мавзу билан боглик бўлган сўзлар ва иборалар ёзилади.

Мулохаза килиш учун кластерлар билан алмашишади.

## Guruxlarda ish olib borish qoidalari

- ✓ Ўзаро ҳурмат ва илтифот кўрсатган холда ҳар ким ўз дўстларини тинглай олиши керак;
- ✓ Берилган топшириқга нисбатан ҳар ким актив, ўзаро ҳамкорликда ва маъсулиятли ёндашиши керак;
- ✓ Зарур пайтда ғар ким ёрдам сўраши керак;
- ✓ Сўралган пайтда ҳар ким ёрдам кўрсатиши керак;
- ✓ Гурух иш натижалари баҳоланаётганда ҳамма қатнашиши керак;
- ✓ Ҳар ким аниқ тушуниши керакки:
- ✓ Ўзгаларга ёрдам бериб, ўзимиз ўрганамиз!
- ✓ Биз бир қайиқда сузаяпмиз: ё бирга кўзлаган манзилга етамиз, ёки бирга чўкамиз!

## III. NAZARIY MATERIALLAR

### 1-mavzu. O‘zbek falsafasining tarixiy ildizlari.

**Reja:**

1. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” o‘zbek falsafasining poydevori sifatida.
2. O‘zbek falsafasi genezisi evolyusiyasida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o‘rni.
3. Temuriylar davri ilm-fan taraqqiyoti o‘zbek falsafasining yangi bosqichi sifatida.
4. Ma’rifatparvarlar va jadidlarning o‘zbek falsafasining yanada rivojlanishidagi roli.

***Tayanch tushunchalar:*** *Avesto, Zardushtiylik, falsafa, Xitoy bitiklari, Turkiy bitiklar, Buddaviylik falsafasi, Moniylik, Mazdakiylik, Yunoniston allomalari, Islom, Farobiy, Beruniy, al-Fvrg‘oniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Zamaxshariy, Tasavvuf, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy, olim, gumanizm, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur, astranomiya, Xonliklar, Bedil, Mashrab, Poshshoxo‘ja, Mirzajon ash-Sheroziy al-Bog‘naviy, ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabog‘iy, So‘fi Ollayor, Muhammad Sharif al-Buxoriy, jadidchilik, Ahmad Donish, Behbudiy*

**1.** Zardo‘sht ta’limoti va "Avesto"falsafasi. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo‘lgan davr mahsuli bo‘lsa-da, asrlar davomida xalqimiz milliy falsafasiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan ma’naviy omillardan zardo‘shtiylik falsafiy ta’limotidir. Bu ta’limotga asos solgan Zardo‘sht, ko‘plab mutaxassislar tomonidan qadimgi dunyoning birinchi donishmandi, o‘z ta’limotini yaratgan buyuk faylasuf, hisoblanadi. U Sharq va G‘arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhur.

Manbalarga ko‘ra, Zardo‘sht miloddan avvalgi VII asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanligi haqida aniq bir

to‘xtamga kelingani yo‘q. Jak Dyushen Giemen “Zardusht madhlari” («Avesto»ning Yasna, Yasht qismlari) kitobining tarjimasiga yozgan so‘z boshida “Sharq donolaridan G‘arb birinchi bo‘lib Zardushtni tutingan o‘g‘ildek tan olgan. Zardushtni Platon bilar edi, chunki uning shogirdlari o‘z ustozlarini Zardushtga qiyoslar va tenglashtirar edilar. Uning (Zardushtning) ta’limoti Platonning dualistik qarashlarida sezilarli iz qoldirgan», deb ta’kidlaydi. Miloddan avvalgi III asrda yashab o‘tgan yunon falsafa tarixchisi Laertlik Diogenning fikricha, «Zardushtdan so‘ng uning juda ko‘p izdoshlari, masalan Oston, Astrampsix, Gobriy, Pazat va boshqalar bo‘lib, ular Makedoniyalik jahongir Aleksandr davrigacha yetib kelganlar». Laertlikning yozishicha, majusiylar misrliklardan ham qadimiyroq bo‘lib, ular olov, suv va tuproqni, ikki ibtido — ezgulik va yomonlikni (Ahura Mazda va Ahriman) ilohiylashtirishgan. Ular doimo mazkur xudolarga topinishgan, borliq bizning duoyu ibodatlarimiz bilan mavjud, xudolar faqat bizgagina quloq solishadi, deb bilishgan. Yunon faylasuflarining fikrlariga ko‘ra, qadimgi hindlar, misrlik, yahudiy, finikiyalik va xaldeyaliklarning hammasi majusiylarning shogird-izdoshlari bo‘lishgan.

Majusiylar ta’limotining ilg‘or tomoni dunyoning eng mayda bo‘linmas zarralar—atomlardan tashkil topganligi to‘g‘risidagi zarvonchilar atomizmi haqidagi g‘oya bo‘lib, u yunon falsafasining shakllanishiga, xususan, Demokritning tabiiy-ilmiy atomizmi uchun nazariy asos bo‘lgan. Laertlik Deogenning aytishicha, Demokritning otasiga shoh Doro bir necha majusiy hamda xaldey olim-tarbiyachilarni yuborgan. Demokrit ular qo‘lida tahsil olgan, keyinchalik Sharq mamlakatlariga ilm olgani borgan.

Xitoy manbalarida ham majusiylar va zirvonchilik ta’limoti to‘g‘risida xabarlar uchraydi. «Shiqand gumanig vichar» («Shubhalarni tarqatuvchi sharh») kitobida zarvonchilarning moddiy dunyo, makon va zamon mayda, eng bo‘linmas zarra — zarvondan tashkil topganligi to‘g‘risidagi ta’limoti bayon etilib, uning ma’nosi ham mutlaq xudo, mutlaq borliq, mutlaq makon va zamondir, deb tushuntiriladi. Zarvonchilar «turli narsalardan, qarama-qarshi, aralash unsurlardan iborat hamda turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan bu olam – Mutlaq Dahr (Borliq-

Zamon) Zarvonning turli xilda namoyon bo‘lishi dunyosidir», deb hisoblaydilar. Majusiylarga xos bo‘lgan jamiyat, ijtimoiy tartib va qonunlar, mulkiy tenglik to‘g‘risidagi g‘oyalar Aflotun, qolaversa umuman qadimgi yunon falsafasi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Zardo‘shtiylikning bosh kitobi "Avesto" bo‘lib, unda qadimgi yurtdoshlarimizning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlari, o‘ziga xos qadriyat va urf-odatlari aks etgan. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyiliga asoslangan falsafiy konsepsiya o‘z aksini topgan bu asarning «Hayot yo‘riqnomasi» deb atalishi ham bejiz emas. «Avesto» millatimizning tarixiy-falsafiy tafakkuri o‘zining butun bo‘y-basti bilan namoyon bo‘lgan ilk yirik asardir.

"Avesto"da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma’lumotlar ham berilgan. Shu kungacha, Hindistonga ko‘chib borgan porslar diniy qavmi a’zolari unga topinadilar. Aslida bu kitob xalqimizning tabiiy-falsafiy bilimlari, axloqiy-siyosiy o‘gitlar, qonunlar, huquqiy tasavvurlar majmuasi, insonni, tabiatni ulug‘lash, ilohiylashtirish, muqaddaslashtirishga oid qadriyatlar madhiyasi, sharafnomasidir. U xalqimizning bundan uch ming yillar avval dastlab og‘zaki shaklda, so‘ngra esa bitik holatiga keltirilgan qadimgi e’tiqodlari, axloqiy qarashlari, diniy-falsafiy, siyosiy tasavvurlari, ta’limotlari, tabiiy-ilmiy bilimlari, she’riyati va badiiyati, boy og‘zaki ijodiyoti majmuasidir.

«Avesto»da Zardushtning keyinchalik G‘arbda yunon faylasufi Geraklit so‘zlari deb qaraluvchi,o‘sha davrdagi dialektik falsafaning asosini o‘zida mujassam etgan mashhur hulosasini o‘qiymiz: “Olov – eng oliy qudrat: u barcha narsani o‘z ichiga oladi va barcha narsaga inadi. U doimiy yonish bilangina yashaydi va barcha-barcha narsada faqat olov yonadi. Inson ham ana shu oliy qudrat bilan yashaydi. Uning irodasi va aqli ana shu ulug‘ osmoniy olovning namoyon bo‘lishidir. Bu olov osmonda, osmon orqali va osmondan kelib chiquvchi sifatida amal qiladi...”

Qadimgi turkiy bitiklar. O‘zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi va umumbashariy ahamiyatga molik madaniyat, ilm-fan, tafakkur, tamaddunlardan biriga ega. U ana shu buyuk ma’naviy-ruhiy boylikning yaratuvchisi va

merosxo‘ridir. Bu bebaho merosning muhim tarkibiy qismi bizgacha «Qadimgi turkiy bitiklar» degan umumiy nomda, asl qadimgi turkiy yozuvimizda yetib kelgan.

Ushbu bitiklar garchi miloddan oldingi asrlarga oid bo‘lsa-da, ularda xalqimiz tarixining uch ming yillik davriga oid tasavvurlari, tafakkuri, turmush tarzi, orzu-umid va intilishlari, qadriyat va an’analari, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, diniy va badiiy qarashlari, umuman, tarixiy va ma’naviy xotirasi o‘z aksini topgan. Ular XVIII, XIX va XX asrlarda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan Sirdaryo, Amudaryo, Urxun-Yenesey, Selenga, Talas, Norin, Dunay, Don daryolari bo‘ylaridan va boshqa yerlardan topilgan, hamon topilmoqda. To‘nyuquq, Kul Tegin, Bilga Hoqon, Ungin, Moyuna Chur, Uyuq Tarlak, Uyuq Turan, Elegesh, Begra, Chako‘l, Achur, Oltinko‘l, Uybat va Irq bitiklari shular jumlasidandir. “Irq bitigi” va “Suvarnaprabxasa” nomli sanskrit matnning turkchasi “Oltin Yoruq” qog‘ozda yozilgan holida bizgacha yetib kelgan. M.Isoqov, N. Raxmonov, A.Zohidov, K.Sodiqov, B.Abulg‘oziev kabi mutaxassislarning bu boradagi ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu bitiklar xalqimizning o‘sha davrdagi dunyoqarashini aks ettirib, ularda Vatanni sevish, Ona zaminga sadoqat ruhi ustuvorlik qiladi. Xalqimizning qadimiy madaniyati, ilm-fani, falsafasi, urf-odat va qadriyatlariga oid dastlabki va ishonchli manbalari devoriy suratlar, tosh bitik va nodir qo‘lyozmalarda o‘z aksini topgan.

Ana shunday bitiklar orqali O‘g‘uzxon (Afrosiyob)ning Xitoy saroy solnomalari orqali bizgacha yetib kelgan quyidagi so‘zlariga e’tibor bering: “...Men Vatanimni o‘z ishqim o‘g‘risiga xor etmayman!.. Vatan faqatgina bizning mulkimiz emasdir! Mozorda yotgan ota-bobolarimizning va bundan keyin tug‘ilajak avlod-ajdodlarimizning bu muborak tuproq ustida haqlari bor! Vatandan ozgina bo‘lsa ham, bir qarich bo‘lsa ham yer bermakka hech kimsaning haqqi yo‘q... Yer davlatning asosidir; uni qanday qilib tortiq qilib, berib yuborish mumkin?!..” (Sima syan. Shi-szidan. Mil. av.150-80y.)

O‘g‘uzxonning bu so‘zlari yozilishi bilan bog‘liq rivoyatga ko‘ra, qo‘shni podsholardan biri, undan avval sevimli otini, so‘ngra suyukli kanizagini so‘raydi.

Tinchlikni saqlash va qo‘shnichilik aloqalariga putur yetkazmaslik uchun bu talablar bajariladi. Bundan qoniqmagan qo‘shni podsho O‘g‘izxondan mamlakatining eng chetidagi kichik bir joyni ham berishni so‘raydi. Yuqoridagi so‘zlarda O‘g‘izxonning bunga nisbatan keskin javobi, aslida kelajak avlodlarga Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning xududlari daxlsizligini saqlash zarurligi to‘g‘risidagi vasiyati, o‘giti yaqqol aks etgan.

Balki ba’zi mutaxassislar milliy falsafaning tarixiy ildizlari to‘g‘risidagi jiddiy tadqiqotlarda rivoyatdan foydalanish maqsadga muvofiq emas, deyishlari mumkin. Ammo tarixning asl haqiqatlarini vaqt pardasi berkitgani, turli istilolar natijasida ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar muttasil yo‘q qilib yuborilavergani, Beruniy bobomiz ta’kidlaganidek, bosqin sababli xalqimizning “eslash qobiliyatiga zo‘r bergani”etiborga olinsa, masalaning mohiyati yanada oydinlashadi.

Din falsafasida muqaddas kitoblarda  ilgari surilgan olamni Xudoning qudrati tufayli yo‘qdan bor qilingani, yaratgani haqida konsepsiyalar yaxshi ma’lum. Holbuki, qadimgi turkiy bitiklarda bundan tamomila mustaqil, asl (original) bo‘lgan Ko‘k Tangrining olamni yaratganligi, uni boshqarib turishi haqidagi diniy-falsafiy, ontologik ta’limot ilgari surilgan. Bunda tangrichilik dinining dunyoqarashi, ta’limotlari, o‘z ifodasini topgan , inson o‘z aql-zakovati bilan olam, borliq va uning qonunlarini bilishga tamomila qodir ekanligi haqidagi qarash-gnoseologik konsepsiya ilgari surilganligini ko‘rish mumkin. Ularda g‘ayri aqliy bilish, skeptitsizm, agnostitsizm, sofistik mayllar umuman uchramaydi, bunda ijtimoiy-siyosiy, ya’ni praksiologik mantiq kuchlidir. Bu nazariyaga ko‘ra inson o‘z taqdirini o‘zi yaratuvchi zotdir, uning aqli-zakovati, bilimi va ijodkorlik g‘oyasi asosiy ahamiyatga ega, degan hayotbaxsh, insonparvar konsepsiya yaqqol ko‘zga tashlanadi.

***2. O‘zbek falsafasi genezisi evolyusiyasida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o‘rni***:

Insoniyat tarixida shunday davrlar bo‘ladiki, muayyan hududda shakllangan,  biron bir xalq erishgan yuksak intellektul salohiyat jahon sivilizatsiyasi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shiladi, uning

taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday davrlarda nomlari tarixda qolgan ko‘plab allomalar va mutafakkirlar bir joyda yashab, yonma-yon ijod qiladilar, jamiyatni ma’naviy yuksalish va madaniy taraqqiyotga yetaklaydilar. Qadimgi Yunonistonning mashhur allomalari Epikur, Geraklit, Demokrit, Solon, Sokrat, Platon, Aristotel va boshqalar nom qozongan miloddan ilgarigi 7-5 asrlar yoki Xitoydagi qariyb barcha antik dinlar va ta’limotlarni dunyoga keltirgan Konfutsiy, Lao szi, Fun szi kabi qadimgi Chin mamlakatining qariyb barcha mutafakkirlari yashagan ikki-uch asr ham insoniyatning madaniy xazinasiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan buyuk ko‘tarilish davrlari bo‘lgan.

Yurtimiz o‘tmishiga xolisona nazar tashlagan har bir kishi bir emas, ikki marta bunday noyob jarayonni kuzatishi mumkin. Vatanimiz tarixidagi “Ilk o‘rta asrlar” deb yuritiladigan milodning IX – XI asrlari hamda Amir Temur va temuriylar davri insoniyat tarixining ana shunday buyuk yuksalish davrlari bo‘lgani shubhasiz. Bu - Amu va Sirdaryo bo‘ylarida yashagan xalqimizning intellektual salohiyati, ilmiy-falsafiy dahosi eng yuksak darajaga ko‘tarilgan, uning Xorazmiy, Farg‘oniy, Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi atoqli namoyandalari jahon sivilizatsiyasi va madaniyati sahifalariga o‘zlarining o‘chmas nomlarini muhrlab ketgan davrlardir.

Shu bilan birga, bu falsafa nomlari millatimiz tarixiga abadiy bitilgan ana shu alloma bobolarimiz yaratgan va rivojlantirgan ezgu g‘oyalar, ta’limot va nazariyalarni aks ettirgan, xalqimiz madaniyati va ma’naviyati nihoyat darajada yuksalganini butun jahonga yaqqol namoyon qilgan davr falsafasidir.Bu Muqanna va Jaloliddin Manguberdi kabi qahramonlar keng xalq ommasiga bosh bo‘lib, ozodlik kurashini olib borgan paytlarda elning ruhini ko‘tarib uni ulkan maqsadlar sari ilhomlantirgan, ezgu g‘oyalar shakllangan davr falsafasi hamdir.

O‘zbek falsafasining bu davri va keyingi takomil bosqichlari, alloma bobolarimizning falsafiy merosi masalalariga bag‘ishlangan asarlar orasida “Ma’naviyat yulduzlari” (2001), “Jahon falsafasi tarixidan lavhalar” (2004) hamda Imom Buxoriy xalqaro markazi tomonidan chop etilayotgan “O‘zbekiston buyuk

allamalar yurti” (2011) kitoblari va “Mutafakkirlar” turkumidagi ilmiy-ommabop risolalarda bayon qilingan fikrlarni ta’kidlash lozim. O‘sha davr allomalari hayoti va ijodi, o‘zbek falsafasidagi o‘rni va ahamiyati mavzuiga M.Xayrullaev, O.Fayzullaev, H.Aliqulov, R.Nosirov, U.Uvatov, M.Qodirov, B.Turaev, A.Axmedov, M.Zohidov, M.Jakbarov, O.Jo‘raev va boshqa olimlarning tadqiqotlari bag‘ishlangan. Biz mazkur mavzuni ana shu mualliflar va boshqa qator mutaxassislarning asarlari asosida muxtasar tahlil qilamiz. Shu munosabat bilan, qo‘lingizdagi kitobning mavzuga bag‘ishlangan ba’zi joylarida ulardan bevosita foydalanilgani uchun mualliflarga minnatdorlik bildirishni o‘z burchimiz, deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, VII—VIII asrlarda Markaziy Osiyoning bosib olinib, arab xalifaligiga bo‘ysundirilishi xalqimiz duyoqarashi va tafakkuriga, milliy falsafaning keyingi amaliyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. VIII asrning oxirlarida Atlantika okeanidan Tyan-Shangacha, Hind okeanidan Kavkazgacha bo‘lgan ulkan hududda turli xalq va elatlarni birlashtirgan islom dini asosidagi yagona saltanat vujudga keldi. Lekin bu jarayon osonlikcha amalga oshmadi.

Xalqimiz dahosini yaqqol namoyon qilgan, islom falsafasi va milliy tafakkurga katta ta’sir ko‘rsatgan allomalardan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810.21.7. Buxoro — 870.31.8. Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘i) jahon falsafasi tarixidamashhur hadisshunos olim va faylasuf sifatida qadrlanadi. Mutafakkirning “Al-Jome’ as-sahih” asari umume’tirof etilgan olti sahih kitobning birinchisidir. Allomaning “At-Tarix al-kabir”, “At-Tarix as-sag‘ir”, “Al-Adab al-Mufrad” (“Adab durdonalari”), “At-Tafsir al-kabir” (“Katta tafsir”), “Kitob al-Favoyid” (“Foydalar haqida”), “Sunan al-Fuqaho” (“Faqihlarning hukmlari”) kabi boshqa ko‘plab asarlari ham ma’lum va mashhur.

Mutafakkir ijodini mukammal o‘rgangan U.Uvatov ma’lumotiga qaraganda, Al -Buxoriyning atoqli alloma bo‘lib yetishuvida oila, madrasa tarbiyasidan tashqari ustozlarining ham buyuk xizmatlari bor. “Men hadislarni 1080 muhaddisdan yozib oldim”, — deb xotirlagan allomaning o‘zi.Al-Buxoriy alloma bobomiz Beruniy ta’biri bilan ifodalaganda “Yodlash qobiliyatiga zo‘r berilgan

davr”da yashagan, o‘sha davrning mahsuli, uning qiyofasini ifodalagan va zamonasining eng nuktadon mutafakkiri edi. U umri davomida yozib olgan va yod bilgan minglab hadislardan eng ishonchli 7275 tasini ajratib, “Al-jome’ as-Sahih” kitobiga kiritgan. Uning o‘zi guvohlik berishicha, 100 000dan ortiq hadisni yod bilgan va bu buyuk asarini 16 yil davomida yozib tugatgan.

“Al-jome’ as-Sahih” shunday bir ulkan ma’naviy xazinaki, unda keltirilgan sahih hadislar Qur’oni karim oyatlaridan keyin o‘z zamonasida va keyinchalik ham islom shariati, kalom va fiqh ilmlarida shar’iy hukmlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu to‘plamdagi ba’zi hadislar hozirgi tabiatshunoslik ilmlarining ham asosini tashkil etganini ko‘ramiz. Masalan, “Suv haqidagi hikmatlar” kitobida barcha o‘simliklar va jonzotlar suvdan paydo bo‘lgani haqida qudsiy hadis keltirilgan. Vaqf mulklari, merosxo‘rlarning haqlari, ilm-ma’rifat o‘rganish barcha musulmon erkak va ayollarga farzligi haqidagi hadisi shariflar hamda muhim hayotiy muammolarda shariat hukmlari va qozilarning fatvolariga manba bo‘lgan.

Jahon tafakkuri va o‘zbek falsafasi taraqqiyotida Abu Iso Muhammad ibn Iyso ibn Savra ibn Muso ibn Ad- Dadhoh As-Sulamiy Al-Bug‘iy At-Termiziy( 824 — Termiz — 892)buyuk muhaddis va mutafakkir sifatida muhim o‘rin tutadi. Mutafakkirning hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan U.Uvatov fikricha, alloma ismidagi Al-Bug‘iy nisbati u tug‘ilgan joy — hozirgi Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘iga nisbatan ishlatiladi. Bu haqda allomaning o‘zi shunday degan: «Bobom Lays ibn Sayyor davrida Marvazda yashar edilar, keyin Termizga ko‘chganlar». Imom At-Termiziy 20 yoshga yetganida Xuroson, so‘ng 25-26 yoshlarida Iroqqa (Basraga) borib, u yerdagi allomalarga shogird tushdi. Undan so‘ng Hijozga ketdi, diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini katta qiziqish bilan egallab, qiroat, bayon, fiqh, tarix kabi ilmlar bo‘yicha o‘z davrining yirik olimlaridan ta’lim oldi.

Imom Termiziyning ilm yo‘lidagi sayohatlari ko‘p yillar davom etdi. U Termizga 250 hijriy (864 milodiy) yildagina qaytib keldi, bunga qaraganda, taxminan 20 yil davomida o‘zga yurtlarda hadislarni o‘rganib, yig‘ib yurgan. Imom Buxoriy bilan Nishopurda (250 hijriy yil)uchrashib, hadislar xususida

muloqotlar olib borgani haqida ma’lumotlar bor. Shundan so‘ng «Sunnani Termiziy» kitobini yoza boshlagan. Ustoz Imom Buxoriy shogirdi Imom Termiziyni alqab, kamtarlik bilan: «Sen mendan bahra topganingdan ko‘ra, men sendan ko‘proq bahra topdim», degan. Bu Termiziyga berilgan juda yuksak baho bo‘lgan. Allomaning “Al-Jomi’” (“Jamlovchi”), “Ash-Shamoyil an nabaviya” (“Payg‘ambarlarning fazilatlari”), “Al-ilal fil-hadis” (“Hadislardagi og‘ishlar”), “Risola fil-xilof va-l-jadal” (“Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola”), “At-tarix” (“Tarix”), “Kitob ul-asmo va-l-kuno” (“Ismlar va laqablar haqida kitob”) kabi asarlari bizgacha yetib kelgan.

Jahon ilm-fani va falsafasida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy(783, Xorazm — 850, Bag‘dod) matematik, astronom, faylasuf sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Allomaning ijodini falsafiy nuqtai nazardan o‘rgangan O.Fayzullaev ma’lumotiga ko‘ra, u ilk bilimni Xorazmda oldi. Xalifa Ma’mun (813-833 yil) asos solgan “Bayt ul-hikma” («Ilmlar uyi») boshlig‘i darajasiga ko‘tarildi va bu lavozimda umrining oxirigacha faoliyat yuritdi.

Xorazmiyning matematika, geometriya, geografiya, astronomiya, tarix kabi ilmlarga oid kitoblarida ilmiy isbotlangan falsafiy fikr-mulohaza, g‘oyalar mavjud. Uning xulosalariga ko‘ra, Alloh tomonidan yaratilgan dunyoda, materiyada o‘z holatini doimiy ravishda o‘zgartirmay birday saqlab turadigan hech qanday narsa va hodisa yo‘q va bo‘lmaydi ham. Materiya tinimsiz o‘sish, o‘zgarish va rivojlanishdadir. Unda nimalardir yangidan paydo bo‘ladi, ma’lum vaqt yashaydi, keyin esa u ham eskira boshlaydi va pirovard-oqibatda o‘z o‘rnini boshqa narsaga qonuniy ravishda bo‘shatib beradi. Eski narsa o‘rnini yangi, qulayotgan narsa o‘rnini tug‘ilayotgan narsa egallashi, alloma falsafiy ta’limoticha, tabiiy-qonuniy jarayondir.

Bundan XII asr ilgari tug‘ilgan va butun jahonda buyuk olim deb tan olingan allomalardan biri Muhammad al-Xorazmiy bo‘lsa, ikkinchisi Ahmad ibn Muhammad al-Farg‘oniydir. Ikkovi ham vatandoshimiz: biri Xorazmda, ikkinchisi Farg‘onada tug‘ilib o‘sgan, voyaga yetgan va nihoyat, o‘sha zamonning Sharqidagina emas, balki butun dunyoda ilm-ma’rifat markazi bo‘lgan Bag‘dod

shahridagi «Bayt ul-hikma» ilmgohida ijod qilishgan. O.Fayzullaevning fikriga ko‘ra, bu fan o‘chog‘i aslida fanlar akademiyasi vazifasini bajargan. O‘sha davrning asosiy tabiiy-ilmiy sohalari bo‘lgan riyoziyot, falakiyot, jug‘rofiya kabi ilmlar olimlar diqqatini jalb qilgan. Vatandoshlarimiz, tabiiyki, shu sohalarda samarali mehnat qilishgan, 1200 yildan buyon ularning mo‘tabar nomlari o‘chmay kelyapti, ilmiy kashfiyotlari insoniyatga hali-hanuz xizmat qilmoqda.

Hali geliotsentrizm sharpasi yo‘q zamonda al-Farg‘oniy Yer eng kichik yulduzdan ham kichikdir, degan fikr bilan maydonga chiqdi. Bunga asos qilib, Yer radiusi Osmon radiuslaridan juda kichikligini aytdi. Yer shari go‘yo bir nuqta. Yerning katta-kichikligini bilish uchun uning diametrini, binobarin, meridian uzunligini o‘lchash nihoyatda murakkab nazariy-amaliy masala ekanligi aniq edi. Al-Farg‘oniy Yer yoyining qaysi uzunligi 1 darajaga to‘g‘ri kelishini o‘lchab, bu miqdorni aniqladi va uni 360 ga ko‘paytirib, 40 ming 800 kilometrni hosil qildi. Yer meridianining hozirgi zamon ilmiy asboblari yordamida o‘lchangan uzunligi 40 ming 8 kilometr chamasidir. O‘rtadagi xato nihoyatda kam, uning bu ishiga Beruniy ham yuqori baho bergan edi.

Al-Farg‘oniy tadqiq qilgan iqlim tushunchasi va iqlimlar guruhini Yevropa olimlari tan oldi va ancha vaqt xizmat qildi, lekin keyingi asrlarda yetti iqlim o‘rniga tropika, subtropika, ekvatoriya, Arktika, Antraktida, qutblar, ohangrabo qutblari, sovuqlik qutbi kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Ya’ni, iqlimlar tasnifi o‘zgardi, lekin al-Farg‘oniy asos qilib olgan o‘sha qoida yangicha shaklda namoyon bo‘lmoqda, xolos. Hozirgi vaqtda mahalliy, hududiy va jahon miqyosidagi ekologiya muammolarini, ozon o‘pqonining jo‘g‘rofiy kenglamasi tabiatini tadqiq qilishda o‘sha qoidani e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

O‘z davrining buyuk qomusiy olimi va mashhur mutafakkiri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048 yil) o‘sha zamon ilm-fani va falsafasining deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan. U Yaqin va O‘rta Sharqning boy fan-madaniyatini puxta o‘rganib, qadimgi yunon mumtoz ilmi bilan chuqur tanishib, yirik alloma bo‘lib yetishdi. Beruniy nafaqat tabiatshunos faylasuf, balki adabiyotshunos olim va shoirham edi. Ona tili bo‘lmish Xorazm

tilidan tashqari yana arab, so‘g‘diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy hamda keyinchalik Hindistonda sanskrit tillarini o‘rgandi. Ilm-fanning ko‘plab sohalarida samarali ijod etib, 162 kitob va risolalar qoldirdi. Shulardan atigi 28tasi bizgacha yetib kelgan. Hozirgi paytda olimning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Ma’danshunoslik», «Mas’ud qonuni», «Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar», Ibn Sino bilan savol-javoblari va boshqalar nashr etilib, turli tillarga tarjima qilindi.

Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. U astronomik kuzatishlar orqali Oy va Quyoshning tutilishi, ularning yerdagi hayotga ta’siri, gidrogeologiya, iqlim, kalendar (taqvim), saqlanish kabi o‘ta murakkab muammolarni yangi ilg‘or uslub va tamoyillar ko‘magida hal etishga e’tiborni qaratdi. Kishilar yashaydigan aholi manzillari, ma’dan va metallar solishtirma og‘irligini belgilash, tabiiy va sun’iy tanlanish g‘oyalari, olamlarning xilma-xilligi haqidagi bashoratlar, tajriba, sinov, kuzatuvga izchil munosabat Beruniy dahosining serjilo qirralari bo‘lib, uning buyuk qomusiy olim ekanini ko‘rsatib turibdi.

Beruniyning borliq to‘g‘risidagi g‘oyalari tabiiy-ilmiy qarashlari bilan uzviy bog‘langan. Uning borliq, tabiat haqidagi g‘oyalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarga samarali ta’sir qildi. Beruniy e’tiborini borliq, materiya, fazo va vaqt, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat kabi muammolar o‘ziga jalb etadi. Beruniy aksariyat olimlar kabi moddiy borliqning tangri tomonidan yaratilganligini e’tirof etadi. Uning fikricha, olam, samo jismlari tangri yaratgan vaqtda tarqoq holda bo‘lib, keyin harakatga kelgan va natijada muayyan nuqtaga to‘plangan bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Beruniy «Oddiy javharlar paydo bo‘lish va yo‘q bo‘lishni bilmaydi» degan fikrni ilgari surgan, Arastu, Forobiy va Ibn Sinoning birinchi turtki haqidagi g‘oyasiga xayrixohlik bildirmasa-da, pirovard natijada olamning yaratilganligini e’tirof etadi. Fazo va vaqt masalalarida ham ularning aniq mazmun kasb etishini, demak, ularning muayyan ashyolar bilan chegaralanishini tan oladi. Abadiylik, uning fikricha, birinchi sabab bilan bog‘liqdir, chunki u yaratuvchining umridir.

Olimning taraqqiyot, qonuniyat va zaruriyat haqidagi g‘oyalari behad samarali. Uningcha zaruriyat va qonuniyat tasodifiyat bilan uzviy aloqada bo‘ladi, chunki hamma narsalar ham muayyan paytda, tartibda, fazoda ro‘y beravermaydi.

Mutafakkirning dunyoqarashida bilish muammolari ustuvor maqomga ega. Bu masalalar yechimini izlashda u kuzatuv, sinov-tajriba, aql-farosat tamoyillariga tayangan. Inson tabiat hodisalarini bilishga bo‘lgan sa’y-harakatida ikki narsadan ilhomlanadi. Bulardan biri Olloh tomonidan azaldan berilgan tabiiy qiziqish, barcha narsalarning mazmun-mohiyatiga yetib borishga bo‘lgan intilishdir. Ikkinchisi bilish tufayli qo‘lga kiritilgan yutuqlardan manfaatdorlikdir. Bu borada olim alximik va astrologlar fikriga qarshi bo‘ldi, ularni o‘z ijodi orqali qoraladi. Uning fikricha, fanning asosiy vazifasi ilmiy haqiqatning tantana etishiga xizmat qilish, haqiqiy bilimlarni yolg‘on-yashiqlardan muhofaza etishdir. Yanglishish, yolg‘on-yashiqning fanga kirib kelishiga safsatabozlik, salaflar erishgan yutuqlarga tanqidiy yondashmaslik, tadqiqotchining noizchilligi, ilmdagi sustkashlik, ob’ektni tadqiq etishni oddiy hayratlanish bilan almashtirish, bilish sub’ektining xastaligi yoki tabiiy holatdan chetga chiqishi, uquvsizlik, nodonlik, qaysarlik va boshqalar sabab bo‘ladi.

Voqelikni o‘rganishda quyidagi talablarga amal qilish shart, deydi olim: tadqiq qilinayotgan narsa, hodisa va xususiyatlarning nisbiy muayyanligi, haqiqatning aniq jug‘rofiy sharoitlar bilan o‘zaro bog‘liq ekanligi, o‘rganilayotgan hodisa va vaqt birligiga alohida e’tibor qaratish. Bundan tashqari, kuzatuv, sinov-tajriba bilish jarayonini birmuncha yengillatsa-da, ularga nisbatan bamaylixotir munosabatda bo‘lish samara bermaydi. Demak, bizning bilimlarimizning naqadar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi «kuzatuvchi – tadqiq etiluvchi ob’ekt– bilish vositalari» muammosini qay tarzda oqilona hal etishimizga bog‘liqdir. Buning boisi, har bir inson tadqiqotchi sifatida ideal mavjudot emas. Bunga yana tadqiqot ob’ektining o‘zgarib turishi, kuzatuv va tajriba vositalarining ilmiy tadqiqot talablaridan past ekanligini nazarda tutsak, bilish jarayoni naqadar murakkab ekanligi yaqqol seziladi.

Voqelikni ma’naviy o‘zlashtirish insonga xosligini Ibn Sino alohida

ta'kidlaydi. Insonning aksariyat hollarda o'zidan kuchli bo'lgan hayvonlardan afzalligi nimadan iborat? Ibn Sinoning fikricha, Alloh insonga shunday kuch-quvvat ato etganki, shu tufayli u ezgulik («xayr»)ni yomonlik («sharr»)dan, intellektual yetuklik, kamolot («rashad»)ni yolg'on-yashiq, adashish («gumrohi»)dan farq qiladi. Inson aqlli mavjudot ekanligidan tabiatda muhim o'rin egallaydi, boshqa mavjudotlardan ajralib turadi.

Ibn Sino Arastu va Forobiy an'analariga tayangan holda voqelikni bilish jarayonini in'ikos ta'limoti bilan bog'laydi. Kishilarning sezgi a'zolariga ta'sir eta olmaydigan har qanday narsa, hodisa bilish chegarasidan tashqaridadir. Aytish mumkinki, Ibn Sino bilish jarayonida in'ikos rolini chuqur anglagan holda narsalarni tanlab aks ettirilishiga ahamiyat berdi. Bilish jarayonining ilk bosqichi jonli mushohadadir. Jonli mushohada orqali narsa, hodisalarning uncha murakkab bo'lmagan jihatlari, xossa-xususiyatlari to'g'risidagi bevosita ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Ular zaminida bilishning yuksak bosqichi bo'lmish aqliy bilish vujudga keladi. Bu borada mutafakkirning jonli mushohadaning ijobiy va salbiy jihatlarini ham ochib berishga uringanligi ko'rinib turadi, deya xulosa chiqaradi Ibn Sino.

Alloma merosida ilm va axloq birligi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy ravnaq insonga xosdir, chunki u aqlning ulkan kuchi, tafakkurning faolligiga asoslanib, haqiqat bilan yolg'on-yashiq o'rtasidagi chegarani belgilab olibgina qolmasdan, balki do'stning dushmandan farqini ham bilib oladi. Agar narsalar, jarayonlarning mohiyatini bilishda intellektual yetuklik, olimlik salohiyati muhim bo'lsa, axloqiy kamolotga erishish uchun bu fazilatlarning o'zi yetarli emas. Ilm va axloqiy fazilat mushtarakligi insonni donishmand va oliyjanob shaxsga aylantiradi.

Mutafakkirning asarlarida ta'kidlanishicha, inson tabiati tug'ilishdan boshlab axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi. Kishilar tayyor sifatlar, ko'nikmalar, fazilat va illatlar bilan dunyoga kelmaydilar. Ular aslida hayotda shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadilar va muayyan ijtimoiy mavqega erishadilar. Ta'lim-tarbiya, boshqa kishilar ta'siri ostida inson ijobiy axloqiy fazilatlarni o'zida shakllantiradi yoki yomon sifatlar, xususiyatlar

sohibiga aylanadi. Har bir inson tomonidan o‘zida ijobiy axloqiy fazilatlarni kamol toptirish qanchalik qiyin bo‘lsa, salbiy sifatlardan qutilish undan ham murakkabroqdir.

Olimning ijtimoiy-siyosiy qarashlari amaliy falsafa tarkibida ko‘rib chiqilgan. Amaliy falsafa axloq, iqtisod, siyosatdan bahs yuritadi. Ular inson, oila, jamiyat manfaatlari, o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi. Ibn Sino Arastu va Forobiy izidan borib, insonni ijtimoiy jonzot deb ta’riflaydi. Kishilarning o‘zaro manfaatli hamkorligi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashi ular hayotining yagona tayanchidir. Jamiyatning barqarorligi uning a’zolari uchun bir xil mazmunga ega bo‘lgan qonun va adolatli hukmning mavjudligiga bog‘liqdir. Jamiyat barcha a’zolari ijtimoiy-foydali mehnat bilan band bo‘lishlari lozim. Bajariladigan vazifalariga ko‘ra, ular mansabdor shaxslarga, ishlab chiqaruvchilar, savdo-sotiq bilan mashg‘ul kishilar va harbiylarga bo‘linadilar.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiy adolat –jamiyat a’zolarini zo‘rma-zo‘raki teng holatda saqlashdan iborat emas. Barcha kishilarning shoh va sultonlarga aylanishi yoki hammaning qashshoqlardan iborat bo‘lishi adolatdan emas. Bunday vaziyat tabiiy va ijtimoiy qonun-qoidalarga tubdan ziddir. Jamiyatda tengsizlik hukmronlik qiladi. Sohiblar va g‘ulomlarning mavjudligi qonuniy bir holdir. Uni hech qanday kuch-qudrat, istak-xohish o‘zgartira olmaydi, chunki har bir kimsa o‘z mehnatiga faolligiga, sa’y-harakatiga qarab orzu-umidga, maqsadiga erishadi. Olimning e’tiqodiga ko‘ra, hamma uchun umumiy hisoblangan qonun saltanatining tantanasi adolatsizlikka chek qo‘yadi, degan xulosaga keladi donishmand.

Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari o‘z davrining ko‘zgusidir. Ular o‘rta asrlar davri falsafiy fikr tarixida muhim ijobiy rol o‘ynadi va undan keyin ijod etgan mutafakkirlar dunyoqarashining shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbek falsafasi takomilidaAbul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamahshariy (1075-1143yil) muhim o‘rin tutadi. Xalqimiz shuhratini jahonga tanitgan bu alloma falsafa va axloq ilmida  o‘z davri uchun qimmatli g‘oyalar

yaratgan, tilshunoslik, lug‘atshunoslik, jug‘rofiya, hadis, fiqh, tafsir, mantiq, aruz va adabiyot sohasida barakali ijod qilgan. Arab tili grammatikasi bo‘yicha amalga oshirgan ishlari hozirgacha ham yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lib kelmoqda. Az-Zamahshariyning “Navobig‘ ul-kalim” (“Nozik iboralar”), “Atvoq uz-zahab” (“Oltin shodalar”), “Al-foiq fi g‘arib il-hadis” (“G‘arib hadislar haqida ajoyib asar”), “Maqomoti Az-Zamahshariy” (“Az-Zamahshariy maqomlari”), “Al-Kashshof” («Qur’oni karimga yozilgan tafsir») kabi asarlarida inson va uning jamiyatdagi o‘rni, axloqiy fazilatlari, adolat, imon-e’tiqodli bo‘lish kabi g‘oyalar o‘git-nasihat, ibratomuz iboralar shaklida bayon qilinadi.

Az-Zamahshariy falsafasi va axloqiy qarashlarining asosini mo‘tazila mazhabi g‘oyalari tashkil qiladi. Manbalardan ma’lumki, mo‘tazila ilk islomdagi oqimlardan bo‘lib, VIII asr oxirida arab xalifaligida vujudga kelgan. Uning asoschisi Vosil ibn Ato (699-748) hisoblanadi. Bu oqim dastlabki paytda arab xalifaligida rasmiy e’tiqod hisoblanib, har tomonlama qo‘llab-quvvatlangan. Keyinchalik esa ta’qib qilina boshlaydi. O‘sha vaqtda mo‘taziliylik Xorazmda keng tarqalgan edi. Mo‘taziliylarning dunyoqarashiga, qadimgi yunon va ellinistik falsafaning ta’siri kuchli bo‘lgan. Mo‘taziliylar qadimgi yunon faylasuflarining mantiqiy uslub va tushunchalarini qo‘llab, ularni ilohiyotga tadbiq qilganlar, aql-idrokning rolini ko‘tarib, uni Qur’on va Sunna qatoriga qo‘yganlar. Ular o‘zlarining dunyoqarashida tavhid (yakka xudolik), adolat, inson erkinligi, Xudoning abadiyligi va Qur’onning Alloh tomonidan yaratilganligini tan olish yotadi.

Zamahshariy fikricha, Alloh taolo tog‘u toshlar, tirik mavjudotlar, dengizu sahrolarni yaratgan. U insonning qilmishidan, yurish-turishidan doimo ogoh bo‘lib turadi. Bas, shunday ekan, inson bu dunyoda xayrli ishlar bilan shug‘ullanishi, odil bo‘lishi, yomonlik va yovuzlikka qarshi kurash olib borishi, haqiqat tarafdori bo‘lishi kerak. Olim zamonasidan zorlanib, ko‘pchilik haqiqat yo‘lidan bormayotganligini, va’dasiga vafo qilmayotganligini alam bilan yozadi. Bulardan qat’iy nazar, u haqiqat g‘olib kelishiga ishonadi. «Quyosh nurlarini berkitib bo‘lmaganidek, haqiqatning chirog‘ini ham so‘ndirib bulmas,[52]—deydi

donishmand. Olim umri davomida mo‘taziliylikning adolat va haqiqat to‘g‘risidagi g‘oyalarini yanada rivojlantirdi. Uning o‘zi axloqiy qadriyatlarni kishilararo munosabatlarda mustahkam joy olishi uchun kurash olib bordi. Uning zamondoshi — mashhur shoir Rashiduddin al-Vatvot «Hatto o‘ziga zarar bo‘lsa-da, doimo adolat yuzasidan ish tutar edi», - deya e’tirof etgan.

Kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro (1154-1226 yy.) xalqimiz dunyoqarashi va milliy tafakkuriga ulkan ta’sir ko‘rsatgan eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri, islom va uning falsafasi taraqqiyotiga o‘ziga hos hissa qo‘shgan buyuk vatandoshimizdir. “U kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tuganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so‘ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g‘olib chiqar edilar”[1]. Allomani Tomatul Kubro (buyuk balo va qazolarning oldini oluvchi, xaloskor), Abul-Jannob (dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turadigan kishi) kabi ismlar bilan ham atashgan. O‘n ikki shogirdini tarbiyalab, shayx darajasiga yetkazganlari uchun mutafakkirni “Valitarosh” (valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi) deb ulug‘laganlar. Bu shogirdlar orasida keyinchalik Alisher Navoiy kamolotida ulkan iz qoldirgan Farididdin Attorning otasi Majididdin Bag‘dodiy va butun dunyoga mashhur Jaloliddin Rumiydek buyuk mutafakkirning otasi Bahovuddin Valad kabi allomalarning borligi ham Najmiddin Kubroning qanday ulug‘ salohiyat sohibi bo‘lganini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

***3-Temuriylar davri ilm-fan taraqqiyoti o‘zbek falsafasining yangi bosqichi sifatida.***

Insoniyat tarixida shunday davrlar borki, unda buyuk ishlarga tayyor millatlar, o‘zining yo‘lboshchilari yetakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yshlarda qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan natijalarga erishganlar. Aynan ana shunday davrlar insoniyat tarixiga shu millatga mansub buyuk kishilarning o‘chmas nomini bitadi, jahon madaniyatini boyitadi, umumbashariy taraqqiyotga katta hissa bo‘lib qo‘shiladi.

---

[1]Али Акбар Деҳхудо. Луғатнома. 104-жилд. –Теҳрон университети нашриёти. 1965, –Б.365 (форс тилида).

Amir Temur va temuriylar davri xuddi ana shunday, mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod bo‘lgan xalqimizning milliy dahosi eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan davrdir. Bu davr falsafasi xalqimizning sohibqiron Amir Temur boshchiligida ozodlikka erishgan va mustaqillikni saqlash hamda mustahkamlash uchun amalga oshirgan buyuk ishlarining ifodasidir.

Bu xalqimizning markazlashgan davlat tuzish, milliy davlatchiligini tiklash va barqaror qilish, mustaqil yashash orzularining ushalgan davridir. Uning falsafasida ham ana shu jihatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi va bu meros bugungi milliy ong va istiqlol mafkurasining falsafiy negizlari orasida alohida o‘rin tutadi.

Tarixdan ma’lumki, O‘rta Osiyoning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi mamlakatni g‘orat qildi, iqtisod, madaniyat, san’at va ilm-fan sohasida tanazzul ro‘y berdi. Jabr, zulm, zo‘ravonlik natijasida xalqning turmushi keskin yomonlashdi.Mo‘g‘ullar zulmiga chek qo‘yishda xalq ommasining noroziligi, sarbadorlar boshchiligidagi ommaviy qo‘zg‘olonlar, ayniqsa, sohibqiron Amir Temurning faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ba’zilar Temur falsafiy asarlar yozmaganku, uning falsafaga aloqasi bormi, deb o‘ylaydi. Aslida Temurning hayoti va faoliyati, unga nisbat beriladigan “Temur tuzuklari” asari falsafadan iborat emasmi? U falsafiy xulosalar chiqarish uchun boshqa kishilarning hayoti va asarlaridan ham mazmunliroq hayot emasmi? Falsafani faqat kitoblardangina o‘rganish mumkinmi? Aslida, falsafani to‘la-to‘kis kitobga tushirib bo‘lmaydi. Kitobga tushirilgan falsafa esa muayyan tizimga keltirilgan bilimlar sistemasi, xolos.

Temuriylar davrida tasavvuf ta’limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo‘qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o‘rnatishda, insonparvarlik g‘oyalarini tarqatishda foydalangan. Temur tasavvufdagi poklanish, to‘g‘ri va sofdil bo‘lish, zino va fahsh ishlar bilan shug‘ullanmaslik, harom-harish ishlardan qochish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallash, muhtojlarga mehr-shafqat ko‘rsatish kabi g‘oyalarni xalqqa singdirish uchun kurash olib bordi. Naqshbandlik tariqatining yirik shayxlari bo‘lmish Sayyid Amir Kulol, Shayx Abu Bakr Tayobodiy, Mir

Sayyid Barakalar Temurning pirlari bo‘lib, Sohibqiron ular bilan tez-tez muloqot qilib turgan.

Temuriylardan Shohruh, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an’analarini izchil davom ettirdilar. XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko‘p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug‘rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga e’tibor berildi. Ayniqsa, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tez rivoj topa boshladi, ularda o‘sha davrning muhim ijtimoiy muammolari va insonparvarlik g‘oyalari olg‘a surildi. "Gul va Navro‘z" muallifi Lutfiy (1366-1465), "Behro‘z va Bahrom" asarini yozgan Binoiy (1453-1512), "Tazkirat ush-shuaro" ("Shoirlar haqida tazkira")ning muallifi Davlatshoh Samarqandiy**,** "Yusuf va Zulayho", "Mahzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") asarlarining mualliflari Durbek (XIV-XUasrlar), Haydar Xorazmiy hamda Kamol Xo‘jandiy (1402 yilda vafot etgan), Hofiz Xorazmiy (XIV-XUasrlar), Ismat Buxoriy (1365-1436), Yaqiniy (XV asr), Hiloliy (XV asr), Atoiy (XV asr) va boshqalar o‘sha davrda yashab, ijod etdilar.

Bu davrda tarix faniga e’tibor kuchaydi, yirik tarixnavislar paydo bo‘ldi. Temuriylar davrida Abdurazzoq Samarqandiyning (1413- 1482) "Matlaa as-sa’dayn va majma’ al-bahrayn" ("Ikki dengizning qo‘shilishi"), Hofizi Abruning (1361-1430) "Zubdat at-tavorix" ("Tarixlarning sarasi"), Muyiniddin Isfizoriyning (1494 yilda vafot etgan) "Ravzat al-jannat fi avsof madinat", Fosih Havofiyning (1375-1442) "Mujmali fosihiy", Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454 yilda vafot etgan) "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning (XIV asr oxiri XV asrning boshi) "Zafarnoma"si va boshqalar mashhur edi.

O‘sha zamonning mashhur tarixchilari Mirxond (1433-1498) va Xondamir (1475—1535) edilar. Mirxond Hirotda tavallud topib, shu yerda ijod qilgan. Uning asosiy tarixiy asari 7 jilddan iborat "Nabiralar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollari haqida poklik bog‘lari" deb ataladi. U olti jildini yozib, vafot etadi,

yettinchisini nabirasi Xondamir yozib tugatadi.Xondamir ham Hirotda tug‘ilib, yoshligidan tarixnavislikka havas qo‘yadi. U Agrada vafot etadi. Uning muhim risolalari "Makorim ul-axloq", "Habib us-siyar", "Vazirlar uchun qo‘llanma" va boshqalardir. Muarrixning eng yirik asari "Habib us-siyar"da qadim zamondan XVI asrgacha Markaziy Osiyo, Eron va Afg‘onistondagi tarixiy shaxslar, voqealar davlatlar tarixi, davlatni boshqarish yo‘llari batafsil bayon qilingan. "Makorim ul-axloq" asarida ulug‘ Alisher Navoiyning bunyodkorlik ishlari, insoniy fazilatlari, Vatan ravnaqi yo‘lida ko‘rsatgan jonbozliklari to‘g‘risida hikoya qilinadi. Xondamirning ilmiy-tarixiy merosi XV—XVI asrlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti to‘g‘risida hikoya qiluvchi qimmatli manba hisoblanadi.

XIV—XV asrlarda mantiq, tabiiy-ilmiy fanlar, ayniqsa, falakiyot, falsafa va axloqshunoslikka katta e’tibor berildi. Mantiqilmining yirik vakillaridan biri Sa’diddin Taftazoniy (1322-1392)dir. Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarning muallifidir. Taftazoniy o‘tmish olimlarining juda ko‘p asarlariga sharhlar ham bitgan.Alloma sabab va oqibat, iroda erkinligi, bilish, ong, mantiq fani va uning vazifalari haqida o‘z fikrini bayon qilgan. Masalan, u tabiatda sabab va oqibat munosabatlarining mavjudligini e’tirof etadi. Taftazoniy iroda erkinligiga to‘xtalib, har qanday ezgu ishlar xudoning mohiyatidan kelib chiqadi. Xudo yaratuvchi sifatida insonlarni yomon xatti-harakatlar qilishdan saqlaydi, insonni ko‘proq xayrli ishlar qilishga chorlaydi, gunoh ishlardan qochishga da’vat etadi, deb aytadi.

O‘sha davrning yana bir atoqli allomasi Mir Sayyid Sharif Jurjoniy Astrobod shahri yaqinida tug‘ilgan. 1387 yildan boshlab Samarqand madrasalarida mantiq, falsafa, falakiyot, fiqh va adabiyot, munozara ilmi va boshqalardan dars beradi.Jurjoniy 50 dan ortiq risolalarning muallifi bo‘lib, ularning aksariyati mantiq, fiqh, falsafa va tabiatshunoslikning muhim muammolariga bag‘ishlangan. Bulardan tashqari, Jurjoniyning Ibn Sino, Chag‘miniy va Nasriddin Tusiylarning asarlariga sharhlar yozganligi ma’lum.

Jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo‘shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi  Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394-1449) matematika va falakiyot sohasida barakali  ijod qilgan. O‘sha davrda falakiyotning faqat

yulduzlarning samodagi oʻrni emas, balki inson va koinot munosabatlariga doir falsafiy xulosalarga asos yaratadiganan’anaviy fanlardan biri boʻlgani nazarda tutilsa, Ulugʻbek merosining biz oʻrganayotgan mavzu borasidagi ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon boʻladi.

Tarixdan ma’lumki, yoshligidan ilm bilan qiziqqan alloma bobomizga taniqli olimlar Qozizoda Rumiy va Gʻiyosiddin Jamshid Koshiy ustozlik qildilar. U garchi davlat arbobi boʻlsa ham, madaniyat va ilm-fan ravnaqiga koʻp kuchini sarfladi, matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Olimning dunyoqarashida Aflotun, Arastu, Ptolemey, Muhammad Xorazmiy, al-Fargʻoniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning asarlari muhim oʻrin egalladi.

Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasi (1420) rasadxona bilan birga olganda, oʻsha davrning akademiyasi ham edi. Zamonasining mashhur olimi, matematik va astronom Qozizoda Rumiy madrasa muallimlaridan biri boʻlgan. Ulugʻbekning oʻzi ham astronomiyadan dars bergan. Gʻiyosiddin Jamshid al-Koshiy, Nizomiddin al-Birjandiy Ulugʻbek maktabining taniqli astronomlaridan edi. Tarixchi Davlatshohning yozishicha, “Ulugʻbek geometriya borasida Yevklidga, astronomiya sohasida Ptolomeyga oʻxshardi”. Ulugʻbekning astronomik jadvallari “Ziji Koʻragoniy”, “Ziji jadidi sultoniy”, “Ziji jadidiy Koʻragoniy”, “Ziji jadidiy sultoniy-ziji Ulugʻbek” kabi nomlar bilan ilmiy muomalaga kirgan.

Bu asarning fors va arab tillaridagi 5 ta qoʻlyozma nusxalari OʻzFA Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar xazinasida saqlanadi. Ulugʻbek oʻz jadvallarida taqvim (kalendar)ga alohida e’tibor qaratgan. Ilmiy tadqiqotlar muayyan hodisalar, voqealarning qachon sodir boʻlganligini aniqlashni, sana va yil hisobini toʻgʻri belgilashni muhim, deb biladi. Asarda yil va oy astronomiya fanida qanday ta’riflanishi, soʻngra hijriy, yunon, yazdigurd, Malika yoki Jaloliddin, uygʻur va xitoy sanalari, ularning kelib chiqish tarixi va oʻzaro munosabatlari toʻgʻrisida aniq ma’lumotlar beriladi. Hafta, oy va yilning boshlanishini, oʻtgan yoki kelgusi vaqtning sanasini aniqlash uchun tuzilgan javdallarni taqdim etadi.

Astronomik hisob-kitoblarda trigonometrik jadvallarning roli behad darajada muhim. Shu bois, aniqlik darajasi yuksak boʻlgan trigonometrik jadvallarni tuzish ustida Ulugʻbek va uning astronomik-matematik maktabi vakillari samarali ish olib bordilar. Natijada aniqligi milliarddan bir boʻlgan toʻqqiz xonali trigonometrik jadvallarni tuzishga erishildi. Samarqand rasadxonasi tomonidan olib borilgan kuzatuvlar koʻmagida ekliptika tekisligi bilan ekvator tekisligining orasidagi burchak, ya’ni ekliptika tekisligining ekvatorga ogʻmaligi oʻta aniqlik bilan $23^0$ $30^1$ $49^{11}$ qilib belgilandi. 1 yil esa 365 kun 6 soat 10 minut 8 sekund qiymatida belgilandi. Bu ma’lumotni N’yukomb ma’lumoti (365 kun 6 soat 9 minut 6 sekund) bilan qiyoslaganda Ulugʻbek oʻz jadvallarida yuksak aniqlikka erishgan.

Ulugʻbek tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va siyosiy qarashlarida ungacha yashab kelgan, uning davrida yetakchi maqom va ahamiyatga ega boʻlgan tamoyillar ta’siri ostida Movarounnahr hukmdori hamda astronomiya fanining sultoni maqomiga erishdi. Diniy va dunyoviy bilimlarga oʻziga xos tarzda yondashdi: Alloh haqiqiy borliq, chunki u barcha narsalarni yaratguvchisidir. U hamma narsaga qodir. Lekin yaratganning abadiy ekanligi u yaratgan olamning abadiyligini ham ta’minlaydi, aks holda sabab bilan oqibat bir-biridan uzilib qolgan boʻlar edi. U oʻziga xos kuch-quvvat, mantiqqa zid boʻlmagan qonun-qoidalar asosida oʻzga narsalarni, ma’naviy-ruhiy jarayonlarni yaratadi. Barcha oʻzga jarayonlar, hodisalar uning beqiyos husnu jamolini tarannum etuvchi narsalardir. Yaratgan, yaratilgan ashyolarda, turli-tuman moʻjizaviy hodisalarda oʻzini namoyon etmasa, u olamni behudaga yaratgan boʻladi. U olamni, inson va jamiyatni, aql-zakovatni, hissiy-nafsoniy quvvatlarni tasodifan, behudaga yaratmagan. Bu yaratishning oʻzida uqib olinmagan sir-asrori bor. Ularning oʻzaro aloqadorligi, sabab-oqibat munosabatlarga kirishi, ta’sir etish va ta’sirlanishi azaldan sifatida berilgan. Lekin ular nodon va kaltafahm kimsalar uchun nafis pardalar bilan niqoblangan. Aql-zakovat, farosat, fahm va shu kabi Kubraviyaning asosi barchaga taqsimlangan, lekin ularning insoniy quvvat hosil qilishi har bir insonning istak-xohishi, ehtiyojiga borib taqaladi. Kaltafahm kimsalar nafis

pardani ko‘tarishga ahd qilganlarni dahriylikda ayblaydilar, chunki ular Qur’oni Karim va hadisi sharifda aql, ilmga berilgan maqomni tushunmaydilar.

Ulug‘bek ta’limotiga ko‘ra, hamma narsa oldindan aniq va ravshan bo‘lganda edi, inson va jamiyatning yaratilishi, insonni yer-zaminni obod qilish va uni boshqarishga vakil qilinishi, barcha mavjudotlarni unga bo‘ysundirishi haqidagi farmonda ma’no va mazmun mantiqqa zid bo‘lib qolar edi. Shunday ekan, olam sir-asrorini bilish, nodonlikdan, johillikdan nafratlanish, ilm olishdan ma’naviy lazzatlanish, ilm ahlini e’zozlash, ularni xayrli ishlarda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular iqtidorini Allohning buyuk in’omi va ne’mati, deb bilish barcha fuqaroning muqaddas burchi bo‘lib qolmog‘i lozim.

Ilmiy haqiqat va yuksak darajaga erishgan aniqlik bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Bunday aniqlikka erishish hamma vaqt ham oson bo‘lavermaydi. Aniqlik birinchi galda ashyolarning miqdoriy munosabatlarini belgilash, matematik qonun-qoidalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish natijasida qo‘lga kiritiladi. Matematikani turli ilmiy sohalarga, ayniqsa, astronomiyaga tadbiq etish inson va jamiyatga katta naf keltiradi. Buning boisi shundaki, Quyosh, Oy va boshqa sayyoralar Yerda sodir bo‘ladigan hodisalarga yaqindan ta’sir qiladi. Taqvimlar yaratish, aniq vaqtni belgilash, Quyosh va Oy holatlarini o‘rganish, ularning tutilishini oldindan bashorat qilish muayyan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Bilimning boshqa vazifasi ham mavjud, u insonni komillik martabasiga erishishiga vosita ham bo‘ladi. Ilm kishilarni kibru havodan, manmanlikdan, mutaassiblikdan, nafs quliga aylanishdan asraydi, dillarni yoritadi, qalblarni turli xil illatlardan poklaydi, hayot yo‘lini nurafshon qiladi, yomonlikni jilovlaydi, ezgulikka da’vat qiladi. Ayniqsa, muruvvat va saxovatning inson ma’naviy yuksalishidagi o‘rni beqiyosdir.

Ulug‘bek sahovatli hukmdor, haqiqat va adolat bobida tengi yo‘q shoh bo‘lgan. Ilm-fan, madaniyat ahli, iqtidorli talabalar, ijodkorlarga homiylik qilgan. Davlatshoh Samarqandiy “Uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat cho‘qqisiga ko‘tarildi”, — deb yozadi. Ulug‘bek jadvallari 200 yildan keyin, 1643 yilda Oksford universitetida fors tilidan lotinchaga tarjima qilinib, chop etildi.

Allomaning astronomik jadvallari 1648, 1650, 1665, 1725, 1765, 1839, 1845, 1847, 1853, 1854, 1889 yillarda Angliya, Fransiya, Belgiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida chop etildi. 1917 yilda “Ulug‘bek ziji” AQShda nashr etildi. Ulug‘bek Ptolemey, Kopernik, Galiley kabi buyuk olimlar qatoridan e’tiborli o‘rin egallaydi.

Ulug‘bek Akademiyasining yirik vakillaridan biri Alouddin Abul Hasan Ali ibn Muhammad Samarqandiy Qushchi (taxm. 1403, Samarqand — 1474.17.12, Istanbul) mashhur astronom, matematik va faylasuf bo‘lib, Ulug‘bek rahbarligida Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Forobiy risolalarini, Beruniyning “Qonuni Mas’udiy” asarini, shuningdek, qadimgi yunon olimlari asarlarini o‘rganib, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Muhammad Xavofiy singari ustozlar qo‘lida tahsil oladi. Madrasani bitirgach, Ulug‘bek ruxsati bilan bir necha yil Eronning Kirmon viloyatida yashaydi. Bu yerda Nasiriddin Tusiyning “Tajrid” asariga sharh sifatida “Risolai ashkol al-qamar” (“Oyning shakllari haqida risola”)ni yozadi.

Ulug‘bek rasadxonasini qurish, xususan, Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Jamshid vafotidan keyin uni bitkazib, zarur kuzatish asboblari bilan jihozlash Ali Qushchi zimmasiga tushgan. Ulug‘bekning “Ziji jadidi sultoni – ziji Ulug‘bek” asari ham shogirdining bevosita madadi bilan tugatilgan. Ulug‘bek vafotidan so‘ng Ali Qushchi Turkiya podshosi Muhammad Fotihning taklifiga binoan Istanbulda doimiy yashab qoladi, Sofiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi. 1472 yili matematikaga oid “Risola al-Muhammadiya” asarini yozib tugatadi.

Navoiy o‘zining odil podsho, fozil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida Nizomiy, Dehlaviylar kabi Sharq madaniyati, falsafiy-siyosiy fikrining tamal toshlarini qo‘ygan al-Buxoriy, at-Termiziy, Forobiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi Sharq arastuchilari-peripatetiklarining, ya’ni mashshoyunlar ilgari surgan fozil shahar (al-madaniyat-ul-fozila), komil inson xaqidagi falsafiy ta’limotlarga asoslangan.

Ma’lumki, Forobiy Sayfud-davlaning davlatini, Abu Ali ibn Sino o‘z davri amiri A’loud-davla davlatini fozil shaharga, ularning o‘zlarini esa komil insonlarga

aylantirishga uringanlar. Navoiy ham “Xamsa” va boshqa asarlaridagi orzu-xayol, odil podsho, adolatli davlat to‘g‘risidagi g‘oyalar bilan cheklanmay, Husayn Boyqaro davlatini odil davlatga, uning o‘zini esa odil podshohga aylantirishga qattiq uringan, bu yo‘lda butun kuchi, siyosiy iqtidori, nufuzi va irodasini, siyosiy mavqeini safarbar etgan.

Navoiy o‘z davri kishisi sifatida o‘rta asr madaniyati, ongi va tafakkuri, qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, demak, o‘sha zamon hayot tarzi va madaniyatining o‘zagi bo‘lmish ta’limotlardan chetda shakllanish Alloma amalda aynan ana shunday tahsil va tarbiya topgan, komil inson bo‘lib shakllangan. Shuning uchun ham Navoiy qarashlarida izchil tarzda uning komil inson to‘g‘risidagi tamoyili ham butun mohiyati bilan namoyon bo‘lgan. Avvalo, komillik, Navoiy fikricha, insonning insoniylik tabiati, imkoniyatlari va ma’naviyati chegaralaridagi komillikdir.

Bobur o‘zbek adabiyoti, falsafa, tarix, geografiyaga katta hissa qo‘shgan mutafakkir. U yoshligidan badiiy ijod bilan shug‘ullandi. Uni butun jahonga tanitgan asari «Boburnoma»dir. «Boburnoma» juda qimmatli adabiy-tarixiy asar bo‘lib, u XV asr oxiri XVI asrning 30- yillarigacha bo‘lgan murakkab tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Bobur ushbu asarda Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistonda ro‘y bergan siyosiy voqealarga batafsil to‘xtaladi. Unda o‘zaro urushlar, taxt uchun kurashlar, xalq ahvolining yomonlashuvi va boshqa voqealar bayon qilinadi. Shuningdek, Bobur Andijon, Samarqand, Qobul va Dehlidagi o‘z faoliyatiga ham to‘xtaladi. «Boburnoma» asari geografiya haqida ham qimmatli ma’lumot beradi. Bobur ushbu asarda shuncha ko‘p geografik nomlar, kishilar nomi, hayvonot va o‘simliklar nomini keltiradiki, bular hammasi uning noyob xotira quvvatiga ega bo‘lganni isbot qiladi. Bobir chet tillardagi kishi va geografik nomlarni mumkin qadar aslida qanday bo‘lsa shunday berishga harakat qiladi.

Yuqoridagi asardan tashqari, Bobur aruz vazni va qofiyaga bag‘ishlangan «Mufassal» nomli asar yozgan, huquqshunoslikka oid uning «Mubayyin» risolasi ham ma’lum, musiqaga bag‘ishlangan «Musiqa ilmi» nomli kitob ham bitgan. Shuningdek, Bobur Xo‘ja Ahrorning «Volidiya» risolasini o‘zbek tiliga tarjima

qilgan.

Bobur o‘zining lirik asarlari bilan mashhur. U g‘azal, ruboiy, masnaviy va boshqa she’rlarida o‘z o‘tmishdoshlari Umar Hayyom, Hofiz, Navoiylarning eng yaxshi an’analarini davom ettiradi. U gumanist shoir bo‘lib, inson, uning erkini, baxtini kuyladi, ishq-muhabbat, vafodorlik, mehru-shafqat haqida so‘z yuritadi. Bobur ma’rifatni xalq orasiga yoyishga, ilmni jamiyat ravnaqi yo‘lida hizmat qildirishga intildi.

***4-Ma’rifatparvarlar va jadidlarning o‘zbek falsafasining yanada rivojlanishidagi roli.***

Xususan, XVI asrdan boshlab Movarounnahrda o‘zaro urushlar, nizolar avjga chiqdi. Temuriylar davlati inqirozga yuz tutib, mayda davlatlarga bo‘linib ketdi. Natijada Shayboniylar davlati tuzildi, 1510 yilda Shayboniyxon Ismoil Safaviy lashkarlari tomonidan o‘ldirilganidan so‘ng, markazlashgan davlat inqirozga yuz tutdi. Shayboniylardan Abdullaxon va uning o‘g‘li Abdulmo‘min vafotidan keyin, XVI asr oxirida bu davlat barham topib, hokimiyat ashtarxoniylar sulolasiga o‘tdi. Imomqulixon (1611-1642) davrida davlat birmuncha mustahkamlangan bo‘lsada, keyingi davrlarda taxt uchun kurashlar davom etdi. Bu jarayonlar iqtisod, madaniyat, ilm-fan, falsafa, adabiyot, san’at ravnaqiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, albatta.

Ayniqsa, falsafiy tafakkur, tabiiy-ilmiy fanlar rivoji zaiflashdi, dunyoviy bilimlar sohasida tanazzul ro‘y berdi. Islom ma’naviy hayotning ustivor mafkurasiga aylangan bu davrda ilgarigi ikki davrdagi kabi original falsafiy nazariyalar, butun jahonni lol qoldirgan ta’limotlarni topish qiyin. Ijtimoiy fikr va falsafiy qarashlar adabiyot, asosan she’riyat orqali namoyon bo‘ladi.Xalqimiz tarixining bu davrida Xorazmiy, Farg‘oniy, Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Moturidiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi olamga dong‘i ketgan, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar bilan tenglasha oladigan mutafakkirlar kam. To‘g‘ri falsafiy tafakkur, adabiy jarayonlar butunlay so‘nmagan, to‘xtab qolmagan, ammo siyosiy hayotning beqarorligi bu borada ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

XVI—XVII asrlarda mintaqamizga xos falsafiy va axloqiy fikrlar sohasida Poshshoxoʻja, Mirzajon ash-Sheroziy al-Bogʻnaviy, ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabogʻiy, Soʻfi Ollayor, Muhammad Sharif al-Buxoriy va boshqalarning adabiy asarlarini koʻrsatish mumkin. Masalan, Poshshoxoʻja (1480-1547) Niso shahridatugʻilib, Buxoroda vafot etgan, "Miftohul-adl" ("Adolat kaliti") va "Gulzor" hikoyalar toʻplamlarini yaratgan. Ularda insof, adolat, diyonat, saxovat, donolik va aql-zakovat, rostgoʻylik, ruhiy komillik, halollik, mehr-oqibat, kamtarlik va boshqa maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni tahlil qiladi, salbiy illatlar, insoniylikka zid xatti-harakatlarni qoralaydi. Uning fikricha, inson oʻz boyligi, husni, mansabi bilan emas, balki odamiyligi, toʻgʻriligi, insonparvarligi, iymoni, vijdoni, diyonati bilan boshqalardan afzalroq boʻla oladi.

XVIIasrning mashhur mutafakkiri, faylasufi Yusuf al-Qorabogʻiy (1563-1647) asli Ozarbayjondan boʻlib, keyinchalik yurtimizga keladi. U yoshligidan fiqh, falsafa, tasavvuf bilan shugʻullanadi. Uning muhim risolalari "Risolayi botiniya", "Risolayi xilvatiya", "Fi taʼrifi ilm" va boshqalardir. Bulardan tashqari u Davoniy, Taftazoniy, Shahobiddin Suxravardiylarning kitoblariga sharhlar bitgan.Qorabogʻiy oʻz salaflari singari dunyoni, butun olamni bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan yagona jism deb biladi. Uningcha olam yagona jism, undagi barcha mavjud narsalar uning aʼzolaridir. Olamdagi butun narsalarni Xudo yaratgan, u birinchi sababdir. Borliqdagi hamma narsalar sabab-oqibat orqali bir-biri bilan bogʻlangan..

Bu davrda Boborahim Mashrab, Soʻfi Olloyor, Turdi Farogʻiy va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari muhim oʻrinni egalladi. Bular orasida Mashrabning hurfikrlik ruhi bilan sugʻorilgan ijtimoiy-falsafiy va axloqiy gʻoyalari eʼtiborga sazovordir.Boborahim Mashrab (1640-1711) Namanganda tavallud topdi va oʻz hayotida Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlarining koʻp joylarida boʻladi. U umrining oxirida Mahmud Qatagʻon tomonidan qatl qilinadi.

Mashrab falsafasi oʻziga xos, unda “Anal haq” taʼlimotining taʼsiri yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Uning fikricha, borliqning asosi, hayotning mazmuni, insonni Xudoga bogʻlovchi asosiy vosita deb ishqni tushunadi. Uningcha,

Xudoning dunyoni yaratishiga asosiy sabab bo‘lgan narsa muhabbatdir. Shu sababdan, inson hirsu ochko‘zlik, hayvoniy sifatlar, manmanlik, xudbinlik kabi xislatlardan poklanish uchun, o‘z asli - ilohiy ishqqa yuz tutishi lozim. Aks holda, u insoniyligini yo‘qotib, tubanlashib ketishi muqarrar.

Xalqimiz tafakkuri tarixida So‘fi Olloyorning ham o‘z o‘rni bor. Manbalarda keltirilishicha, u Samarqand viloyatidagi Minglar qishlog‘ida dunyoga kelgan. Lekin tavallud topgan va vafot etgan yillari ma’lum emas, XVII asrning oxirlarida tug‘ilgan, deb taxmin qilinadi. «Mahzan-ul-mitoin» («Mutelar xazinasi»), «Maslak-ul-muttaqiyn» («Taqvolilar maslagi»), «Murod ul-orifin» («Oriflar murodi»), «Sabot ul-ojizin» («Ojizlar saboti») kabi risolalar yozgan. She’rlarini o‘zbek tilida «Ojizlar saboti» nomi bilan e’lon qilgan.

O‘zining ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari bilan Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan shoir va faylasuf Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721)dir. Mirzo Bedil ilmning ko‘p sohalari, xususan falsafa, adabiyot, san’atshunoslik bo‘yicha ijod qildi. U hind, arab, eron, ko‘plab Osiyo xalkdarining ilmiy merosini chuqur o‘zlashtirgan yetuk olimdir. Bulardan tashqari, Mirzo Bedil Sa’diy, Attor, Jomiy, Hofiz, Navoiylarning she’riyati, dunyoqarashini puxta bilgan.Uning muhim asarlari "Chor unsur", "Irfon", "Ruboiyot", "g‘azaliyot" va boshqalardir. Vaxdati-vujud oqimi tarafdorlari tabiatning abadiyligini, materiya va ruhning birligini tan olib, Xudoni olamning o‘zida deb biladilar. Mirzo Bedil ana shu ta’limot tarafdori edi. Bedil o‘zining "Chor unsur", "Irfon" asarlarida hamma narsalarning asosida havo yotadi, deb hisobladi.

Uningcha, havo abadiy, mutlaq, harakatchan, o‘zgaruvchan, rangsiz va yengildir. U yuqori va quyi tomon harakat qiladi. U ruxlar to‘g‘risida so‘z yuritib, nozik bug‘-buxori latif havodan kelib chiqib, tabiiy ruh, nabotot ruhi, inson ruhi, hayvoniy ruhni paydo qiladi, deydi. Xullas, u tabiatni ruhlantiradi, ruhlar moddiy dunyodan tashqarida emasligini alohida ta’kidlaydi.Mirzo Bedil bilish haqida fikr yuritar ekan, bilishning birinchi bosqichi his-tuyg‘ular bilan bog‘liqligini, bilishda inson tafakkurining qudrati kuchli ekanligini yozadi. Bedil inson o‘z qilmishlari, xatti-harakatida erkindir, degan qoidani hayotiy misollar orqali asoslab berishga

intiladi, mehnat va hunarni, ilm va kasb egallashni ulug‘laydi.

O‘sha davrda yashagan Xo‘janazar Huvaydo (1704-1774) o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan salohiyatli shoiri, xalqimiz tafakkurining taniqli namoyandasi bo‘lib tanilgan. Uning asarlari 1907 yilda Toshkentda toshbosmada «Kitobi Huvaydoiy Chimyoniy» nomi bilan devon tarzida chop etilgan. Uning e’tiqodiga ko‘ra, borliq yagonadir. Alloh boru birdir. Moddiy olam, tabiiy va ijtimoiy borliq mustaqil ahamiyatga ega emas. Lekin bu olam behudaga yaratilmagan. Inson Alloh ijodining yuksak timsolidir.  Shunday ekan, Huvaydo oldida ma’naviyat, axloqiy ma’naviyat, axloqiy qadriyatlarga munosabatda boqiylik, abadiyat bilan o‘tkinchi hayot, abadiy va nisbiy qadriyatlar, ruhiy kamolot bilan vaqtinchalik moddiy noz-ne’matlar, huzur-halovatlar nisbati muammolari ko‘ndalang bo‘lib turadi. Uning fikricha, inson umri qisqa ekan, abadiyatdan o‘rin olmoq uchun u o‘zining salbiy odatlarni bartaraf etmog‘i, ulardan forig‘ bo‘lmog‘i zarur. Bu esa Huvaydoning diniy-tasavvufiy shaklda insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etganidan dalolat berib turibdi.

Bu davrda Xorazmda Komil Xorazmiy, Ogahiy va Munis kabi shoirlar ijod qildilar.Ogahiy — Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li1809 yilda Qiyot qishlog‘ida tug‘ilib. 1874 yilda vafot etgan. Shoirning muhim asarlari "Gulshani davlat", "Riyoz ud-davla", "Jome’ ul voqeoti Sultoni", "Zubdat ut-tavorix". "Shohidi iqbol", "Bayozi mutafarriqai forsiy", "Firdavs ul-iqbol" va boshqalardir. Bulardan tashqari, Ogahiy, Sa’diy Sheroziy, Nizomiy, Kaykovus, Jomiy va Koshifiyning badiiy, tarixiy, falsafiy, axloqiy-didaktik asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.Ogahiy o‘zining "Qasidai nasihat" nomli asari va boshqalarda davlatni boshqarish yo‘llarini ko‘rsatadi, Xiva xoni Feruzga mamlakatni odilona boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini aytadi. Ogahiy o‘zining ijtimoiy qarashlarida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi, odamlarni yaxshilik va ezgulikka, xayrli ishlar bilan shug‘ullanishga, ma’rifatparvarlikka da’vat etdi. Uning tarixiy risolalari haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Mutafakkir Xiva xonligining 1813-1873 yillar tarixini yozib qoldirgan.

XIXasrning ikkinchi yarmida Turkiston rus chorizmi tomonidan bosib

olindi. Bu asrning 60-70 yillarida xalqning qattiq qarshiligiga qaramay, Chor Rusiyasi askarlari zo‘ravonlik, qurol ishlatish yo‘li bilan Turkiston shahar va qishloqdarini ishg‘ol qildilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma’rifatchilik g‘oyalari tarqala boshladi, yangi ta’lim-tarbiya shoxobchalari, maktab, maorif, madaniy targ‘ibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko‘plab ma’rifatchilar yetishib chiqdi.

Ma’rifatparvarlik mafkurasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Ahmad Donish (1827-1897) bo‘lib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix sohasida asarlar yozgan.U mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurligini uqtiradi. Davlat, olimning nuqtai nazaricha, xalqning manfaatini himoya qilishi, hukmdor esa bilimdon, aqlli bo‘lib, o‘z atrofidagilar bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar olimning "Navodirul-vaqoe" va boshqa risolalarida o‘z ifodasini topgan. Ahmad Donish o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini real faktlar o‘z davrining hukmdorlari faoliyatidan olingan tarixiy dalillar asosida bayon qilgan. "Risola dar ilmi kurra" ("Globus haqida risola"), "Manozir al-kavokib" ("Yulduzlarni kuzatish") kabi asarlarida o‘zining astronomiya va geografiya fanlariga oid qarashlarini yoritib berishga harakat qilgan. "Tarixiy risola" asarida Buxoro amirligidagi inqirozning sabablarini tahlil qilib, jamiyat taraqqiyotining asosiy shartini tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan islohotlarni hayotga joriy qilish ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga harakat qiladi. Donishmandning bunday g‘oyalari hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

X1X asrning ikkinchi yarmida ijod etgan qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Berdaq (1827—1900) "Omongeldi", "Xalq uchun", "Ahmoq podsho", "Yaxshiroq", "Bo‘lgan emas", "Yernazarbiy" kabi asarlarning muallifidir. Ushbu asarlarda mutafakkir qoraqalpoq xalqining turmush tarzini, o‘sha zamondagi hayotini mohirona tasvirlaydi. Berdaq asarlarida axloq, xulq-odob, nafosat va go‘zallik, vatanparvarlik, insonparvarlik, tenglik, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, haqiqat uchun kurash kabi milliy, umuminsoniy qadriyatlar keng o‘rin olgan.Uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari yoshlar ongi-da ma’naviyat

hamda milliy mafkurani shakllantirishda muhim tarbiyaviy kuchga ega.

O‘sha davr ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalari Muqimiy (1850-1903), Furqat (1859-1909), Zavqiy (1853-1921), Anbar Otin (1870-1914), Hamza (1889-1929) lar ijodida ham xalqni ezgulikka chorlovchi, bunyodkorlik ruhi bilan sug‘orilgan g‘oyalar ko‘zga tashlanadi. Ular jamiyatdagi illatlarni tanqid qilish bilan ajralib turadilar. Masalan, ulardan biri, atoqli shoir va mutafakkir Furqatning ma’rifatparvarlik g‘oyalarida bu jihat yaqqol ko‘rinib turadi. Alloma o‘ta murakkab davrning ziddiyatli tomonlarini, mamlakat qoloqligining tub sabablarini haqqoniy idrok qiladi. Bu qoloqlikning asl sababi jaholatda, urush-janjallarda deb bildi. Xon va beklarning o‘zaro nizolari, ularning savodsizligi va jo-hilligi, ochko‘z va tamagirlig‘i, tekinxo‘rligi mamlakat va xalqqa ofat va kulfat keltirayotganini ko‘ra bildi.Vatandoshlarini zamonaviy bilimlar va taraqqiy etgan mamlakatlarning madaniyatini o‘zlashtirishga da’vat qildi. Furqat asarlari xalqimizni bosib olgan va uni ma’naviy asoratda saqlashga harakat qilayotgan Chor Rossiyasi uchun xatarli hisoblangani uchun mamlakatdan chiqib ketayotganida shoirga qarshilik qilishmagan, qaytish uchun harakat qilganida esa ruxsat berishmagan. Anbar Otinning “Qarolar falsafasi” asarida ham mehnatkash xalqning nochor holati, uning orzu-umidlari aks etgan. O‘sha davr falsafasining inqirozi, ilojsizlik, jamiyatdagi salbiy illatlar va adolatsizliklarni bartaraf etishda, ma’rifat, ilm-fan, ta’lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligi asarda mahorat bilan tasvirlangan.

Shuni ham alohida ta’kidlash zarurki, Turkistondagi ma’rifatchilik o‘zining O‘rta va Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjondagi qardoshlari Said Ahmadxon, Jaloliddin Afg‘oniy, Butrus al-Bustoniy, Jurjiy Zaydon, Muhammad Abdu, Abdurahmon Kavokibiy, Javod Husaynzoda, imom Rizouddin ibn Faxriddin, Shayx Musa Jorulloh, Gaspirali Ismoilbek va boshqalar nomi bilan bog‘liq diniy-islohchilik, ma’rifatchilik harakatlari, jarayonlari bilan o‘zaro ta’sirda chuqur sifatiy o‘zgarishlarga duch kelayotgan edi.

Garchand ular ijodida bevosita ontologiya yoki gnoseologiyaning umumnazariy masalalari kamroq uchrasa-da, o‘sha davr hayoti va millat taqdiri

bilan bog‘liq ko‘plab falsafiy muammolar jadidlarning diqqat markazida turgan, bu borada qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Aslida ham butun falsafa tarixi faqat ontologiya va gnoseologiya tarixidan iborat emas. Balki muayyan alloma yoki faylasuf yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ular mansub millat va Vatanda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, xalq hayoti va kelajagiga daxldor masala va muammolarning yechimlarini izlash bilan bog‘liq g‘oya va nazariyalarning kashf etilishi hamda ularni amaliyotga qo‘llash jarayonlari ham bu tarixning eng muhim qismidir.

Yurtimizda ma’rifatchilik harakatining avj olishi jadidchilik g‘oyalarining vujudga kelishida muhim o‘rin egalladi. Lekin Sho‘rolar davrida jadidchilik ko‘pincha bir tomonlama talqin qilindi, uning g‘oya va maqsadlarini soxtalashtirish, hatto uni millatchilik harakati, deb baholash hollari ham bo‘ldi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng bu harakatni xolisona va ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish imkoniyati tug‘ildi. Shu ma’noda, X1X asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan, aksariyatini sobiq sovet tuzumi yo‘q qilib yuborgan ma’rifatparvarlar hayoti va ijodi o‘sha davrdagi milliy falsafamiz rivojini, unga xos ustivor yo‘nalishlar, g‘oya va qarashlar silsilasini namoyon qiladi.

Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ma’rifat g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. Alloma odamlarni dunyoviy fanlarning yutuqlarini o‘zlashtirib olishni, o‘z davri ijtimoiy talablari, asosan, shakllangan axloq me’yorlariga amal qilish, insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirish hamda islom dini ta’limoti bilan tanish bo‘lishga undagan. Behbudiy ilmu ma’rifat xalq ommasi tomonidan o‘zlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi. U millat ozodligini ma’rifatparvarlik darajasi bilan bog‘lab, ma’rifatni ozodlikka erishishning yagona omili, deb ishongan. Behbudiy istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo‘ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo‘ravonlik g‘ayriaxloqiy, binobarin, g‘ayriinsoniydir.

O‘tgan asr boshlaridagi falsafiy fikr va milliy tafakkur rivojida Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878-1931) faoliyati va ijodi muhim ahamiyatga ega. O‘z davrida mashhur adib, muharrir, ma’rifatparvar, jamoat arbobi bo‘lgan Munavvar

Qori Toshkent shahrida tug‘ilgan. Shu yerdagi Yunusxon madrasasida o‘qigan, so‘ngra Buxoroda tahsil olgan va 19-asrning oxirida jadidchilik harakatida faol ishtirok eta boshlagan. 1901 yilda o‘z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochgan va bu maktablar uchun 1907 yilda “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklarini yaratgan. “Tajvid ul-Qur’on”, “Yer yuzi” singari ko‘llanmalarni nashr etadi. Bolalar uchun qator she’riy va nasriy hikoyalar yozadi. 1909 yil Toshkentda “Jamiyati xayriya” uyushmasini tuzadi va “Turon” nomli jamiyat ochadi. Munavvar qori 1906 yil dastlabki o‘zbek matbuoti namunalaridan biri “Xurshid” gazetasini nashr etdi. Keyinchalik “Najot”, “Kengash” gazetalarida bosh muharrir, “Sadoi Turkiston”da esa bo‘lim muharriri bo‘lib xizmat qildi. Uning «Tarixi islomiya» (1912). «Yer yuzi» (1916—1917), 4 qismdan iborat «O‘zbekcha til saboqligi» (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925—1926, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan. 1914 yilda taraqqiyparvar o‘zbek shoirlarining she’rlarini jamlab, «Sabzavor» nomi bilan nashr etgan. Munavvarqori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan.

## 2-mavzu. XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi.

**Reja:**

1. XX asr o‘zbek falsafasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Milliy falsafani shakllantirishning yangi konseptual-metodologik yo‘nalishlari.
3. Mustaqillik yillarida o‘zbek falsafasini yangicha talqin etishning o‘ziga xos masalalari.
4. Harakatlar strategiyasi-o‘zbek falsafasining yangi bosqichi.

***Tayanch tushunchalar: Mafkura, strategiya, ijtimoiy munosabatlar, ilm-fan, taraqqiyot, regress, progress, renesans, sinfiy jamiyat***

### *1. XX asr o‘zbek falsafasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.*

Ma’lumki, o‘tgan asrning boshlarida Rossiya imperiyasida hokimiyatni bolsheviklar partiyasi zo‘rlik bilan egallab oldi va o‘z tuzumi, iqtisodiy tizimi,

siyosati va mafkurasini o‘rnatdi. Sobiq ittifoqning siyosiy tuzumi yakka partiyaning mutlaq hukmronligi, u asoslanadigan yagona mafkuraning totalitar ustivorligi asosiga qurilgan edi. Davlat tizimi va jamiyat tuzilishi ham ana shu mafkuraga muvofiq o‘zgartirildi, ilm-fan, ma’naviyat, ta’lim tarbiya ham unga asoslandi. O‘zbekiston o‘sha davlat tarkibida bo‘lgani uchun bu jarayonlar xalqimiz hayoti, xususan falsafasiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatgan, asoratlar qoldirgan.

**Totalitar mafkuraning falsafaga ta’siri.** Sobiq ittifoq davrida hayotning barcha sohalari sinfiylik, partiyaviylik, xudosizlik tamoyillari va davlat mulki ustivorligiga tayangani, so‘z va vijdon erkinligi turli yo‘llar bilan bo‘g‘ib kelingani, bir yoqlama dunyoqarash zo‘rlik bilan singdirilgani tufayli falsafaning quruq safsata va zerikarli aqidaga aylanib qolgani achchiq haqiqatdir. U davrda totalitar tuzum va yakka partiya manfaatlari ustun qo‘yilgani oqibatida falsafa deganda, insonni – inson, xalqni xalqqa aylantiradigan, uning qadr-qimmati va o‘zligini aks ettiradigan, asrlar davomida bir butun tizim sifatida shakllanib, rivojlanib kelgan hodisa emas, balki sobiq mafkuraning maddohiga aylantirilgan, uning doirasidagi kichik bir soha tushunilar edi, xolos. Ko‘pchilik falsafani alohida va serqirra hodisa emas, balki mavhum va hayotdan yiroq qonunlar va kategoriyalar yig‘indisi sifatida tadqiq va targ‘ib qilishga ko‘nikib, odatlanib qolgan edi.

Bu esa, falsafiy ta’limotlarning zamon bilan hamnafasligi, xalq xayotining in’ikosi va uzviy ifodasi ekanligini unutilishiga sabab bo‘ldi. Natijada ko‘pchilikda falsafa mavhum va keraksiz fan ekanligi, uni o‘rganishga ketgan vaqt bekorga o‘tgani haqidagi alamli tasavvurlar shakllanib qoldi. Falsafa ko‘p yillar mobaynida oddiy va ravon tilda tushuntirilmas, aksincha, turli qonun va qoidalar, xilma-xil ta’limot va g‘oyalar majmuidan iborat mavhum va murakkab fan sifatida talqin etildi. U yoki bu falsafiy qoida nega kerak, ularni o‘rganishning qanday ahamiyati bor, muayyan faylasuf aynan biror-bir g‘oya yoki ta’limotga ko‘proq ahamiyat berganining sababi nimada, nima uchun uning qarashlarida aynan ana shu muammo ustuvor bo‘ldi, degan masalalar, ko‘p hollarda, nazardan chetda qolar

edi. Falsafa tarixiy voqelik bilan bog‘lab tushuntirilmas, falsafiy ta’limotlar o‘z asoschilari hayotining o‘zviy qismi ekani yoddan chiqarilar edi.

Oqibatda nima bo‘lar edi? Falsafa mutaxassisi bo‘lmagan talabalarning nihoyatda oz qismigina bu fanning asl mohiyatini tushunib olardi, xolos. Aksariyat yoshlar esa falsafa olamiga kirib bora olmasdan, guyoki katta shahar boshlanadigan joyda qolib ketardi. Kun sayin chuqurlashib, fan sirlarini bor murakkabligicha tushuntirishda davom etayotgan o‘qituvchi sanoqli talabalar bilan birga o‘sha shaharga kirardi, ko‘chalar, mahallalarni — falsafa dunyosini kezishda davom etardi. Lekin qolgan talabalar esa bu xazinadan bebahra bo‘lib, shaharga kirmasdan o‘tadigan aylanma yo‘ldan borishga majbur bo‘lar va shu tariqa falsafaning mohiyatini durustroq tushunmay, diplom olardi hamda amaliyotga ketardi.

Ana shuning oqibatida, haligacha mutaxassis bo‘lmagan ba’zi kishilar falsafani eng qiyin va nihoyatda mavhum fan, deb hisoblaydilar. Bundaylar nazarida falsafa tushunarsiz, keraksiz va ortiqcha ilm sohasi bo‘lib, faqat baho olish uchun yodlangan qonun-qoidalar tez orada unutiladi. Ularda falsafa qonunlarini hayotga tatbiq etib bo‘lmaydi, bu — foydasiz bilim sohasi, binobarin uni o‘rganishga ketgan vaqt bekorga o‘tdi, degan alamli qarash shakllanadi.

O‘tgan asrning 20 yillariga kelib falsafa chuqur mafkuraviy inqirozga uchragan, u kommunistik tuzumning xizmatkoriga aylantirilgan. Shunga qaramasdan, Naim Said, S.Ayniy, Z.To‘g‘on, K.Yerzin, Hakim Ne’mat, R.Xolmurodovlarning falsafiy risola va maqolalari chop etilgan. 2- jahon urushi davrida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil etilishi urushdan keyingi 50-60 yillarda ijtimoiy fanlar, xususan falsafiy tadqiqotlarni ham bir muncha izga tushishiga turtki bo‘ldi. Bu davrda S.Valiev, I. Mo‘minov, J.Boboev, V.Zohidov, H.Rasulov, A.Ayupov, S.Azimovlar falsafa fani sohasida ijod qilganlar. V.Zohidov 1946 yilda Beruniy, Navoiy va Bobur ijodi hamda falsafasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari uchun O‘zbekistonda birinchi bo‘lib falsafa fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan.

Stalin vafotidan keyin, garchand ittifoq falsafasining mazmun-mohiyati

o‘zgarmagan bo‘lsada, tadqiqotlar ko‘lami kengaydi, uning turli yo‘nalishlari bo‘yicha izlanishlar soni ko‘paya boshladi. O‘tgan asrning 70 -80 yillariga kelib, falsafa sohalari ixtisoslashgan tadqiqotchilarga ega bo‘ldi, deyish mumkin. Jumladan, M.Xayrullaev, M.Baratov, H.Vohidov, H.Aliqulov, R.Nosirov, S.Yo‘ldoshev, A.Sharipov, M.Usmonovlarning asarlari falsafa tarixi mavzuiga bag‘ishlangan. Ularda jahon falsafasi, uning takomil bosqichlari, O‘zbekiston hududida yashagan ba’zi mutafakkirlarning g‘oya va qarashlari o‘rganilgan.

Tabiatshunoslik falsafasi va bilish nazariyasi masalalari O.Fayzullaev, B.Ismoilov, J.Tulenov, K.Ivanova, V.Nikitchenko, M.Abdullaeva, E.Hoshimova, R.Imomalieva, S.Qo‘shoqovlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning asarlari tabiiy fanlar, ayniqsa matematika, fizika, kibernetikaning falsafiy masalalari bilan birga ontologiya va gnoseologiya, falsafa metodlari, jumladan dialektikaning qonun va kategoriyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ijtimoiy falsafa, jamiyat va inson munosabatlari, jamiyatning tarkibi va tuzilishi, turli ijtimoiy sub’ktlar va ular orasidagi o‘zaro aloqalar, mehnat va ishlab chiqarishning ma’naviy jihatlarini o‘rganish falasafiy tadqiqotlarning doimiy mavzusi bo‘lib kelgan. H,Po‘latov, A.Valiev, E.Yusupov, Q.Xonazarov, T.Sharipov, R.Abdishukurov, S.Tursunmuxamedov, Yo.Toirov, A.Chorievlarning asarlari ana shu mavzuga bag‘ishlangan.

Madaniyat falsafasi, moddiy va ma’naviy madaniyatning o‘zaro aloqasi, inson madaniyatini shakllantirish va tokomillashtirish bilan bog‘liq masalalar ham soha mutaxassislari diqqatini tortgan. K.Sodiqov, S.Shermuxamedov, M.Axmedova, M.Abdullaevlar tomonidan bu mavzuga doir masalalar tadqiq qilingan. Y.Jumaboev, H.Shayxova, O.Umurzoqova, H.Aliqulovlarning tadqiqotlarida ushbu mavzu bilan birga ma’naviyat va axloqshunoslik masalalari ham yoritilgan.

***2. Milliy falsafani shakllantirishning yangi konseptual-metodologik yo‘nalishlari.***

Insoniyat tarixi xalq mutaqilligi har qanday milliy falsafaning tayanchi, uning takomili va jahon falsafiy jarayoni bilan uyg‘unlashuvining asosiy sharti

ekanidan dalolat beradi. Mustaqil bo‘lmagan xalq falsafasida mustamlakachilarning g‘oyalari ustivor bo‘lishi ham ma’lum. Bunday sharoitda xalq milliyligini, ma’naviyatini, o‘ziga xos qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini o‘z falsafasida to‘la-to‘kis aks ettira olmaydi.Faqat mustaqilikkina xalq hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlarga asos bo‘lishi, jumladan milliy falsafa rivoji uchun ham zamin yaratishi mumkin. Bu esa **mustaqillik – milliy falsafa taraqqiyotining asosiy omili,** uning tayanchi va suyanchi ekanini yaqqol isbotlaydi.

Shu ma’noda, xalqimizning XX asr so‘nggida mustaqillikka erishishi falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayon ekanligi, hayotdagi voqea-hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etishini yana bir bor isbotladi. Davr o‘zgarishi bilan muqarrar tarzda yangi ma’naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlarning shakllanishi o‘z-o‘zidan yuz bermasligi, ayniqsa, inson tafakkurining o‘zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo‘lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayon ekanligi to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Bu hol xalqimiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan sobitqadamlik bilan borayotgan bizning kunlarimizda yangi bosqichga qadam qo‘ygan o‘zbek falsafasi misolida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bu borada, O‘zbekiston Prezidentiasarlari bugungi milliy tafakkur rivoji uchun tayanch ilmiy metodologiya va nazariy paradigmalarni shakllantirish majmui bo‘lib xizmat qilayotganini alohida ta’kidlash lozim. Mustaqillik yillarida milliy taraqqiyot modelining hayotga tadbiq etilishi va amalga oshirilgan islohotlar tufayli falsafaning yangilanishi uchun zarur asoslar shakllandi.

Bunday omillar orasida moddiy-iqtisodiy asos muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.Eski, sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot mustaqil taraqqiyotimizga mos yangi mazmundagi falsafani shakllantirish uchun asos bo‘la olmas edi, albatta. Istiqlol yillarida bu sohada nihoyatda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi, mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari bunda bosh yo‘nalish qilib olingan bo‘lsa-da, aholini ijtimoiy himoyalash ustuvor

jihat sifatida belgilandi. Ana shularning barchasi mamlakatimizda ma’naviy, jumladan falsafiy yangilanish borasida ham tub o‘zgarishlarning iqtisod bilan bog‘liq asoslarini yaratish imkonini berdi.

Falsafaning ijtimoiy-siyosiy asoslari mustahkam bo‘lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘p bor isbotlangan ijtimoiy haqiqatdir. Har qanday jamiyat va mamlakatda davlat xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongini o‘zgartira olmasa, o‘zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylangan O‘zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Ana shularning barchasi yangi mazmundagi falsafani shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratish imkoniyatini ochdi.

Ma’naviy asoslarhamfalsafaning yangilanishida, nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yangi mazmundagi falsafaning shakllanishi mamlakatda amalga oshayotgan ma’naviy sohadagi o‘zgarishlarning tarkibiy qismidir. Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq ma’naviyatining tozalanishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog‘liq sa’y-harakatlar katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, tarix falsafasi, xalqimizning xotirasi, o‘tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to‘la-to‘kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta’kidlash lozim. Bu esa qadimiy tariximiz, teran ma’naviyatimiz va milliy mafkuramizga tayanib, boy madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixini chuqur va har tomonlama o‘rganish, falsafani yangilash va zamonaviylashtirish bu boradagi dolzarb vazifaga aylanganidan dalolat beradi.

Istiqlol yillaridagi tajriba dalolat beradiki,falsafiy ongning yangilanish jarayoninafaqat umumiy ma’naviy muhitning, balki har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi hamdir. Bu buyuk alloma bobolarimiz orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan jarayondir. Bizning mamlakatimizda o‘tish davriga to‘g‘ri kelayotgan bu jarayonda ijtimoiy muhitda yangi jihatlar vujudga keldi, odamlarning ruhiyati, qarashlarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu o‘z navbatida,

inkor, vorislik va yangilanish jarayoni hamdir. Unda, bir tomondan, yaqinginada ustuvor boʻlgan sinfiy-partiyaviy tamoyillar oʻtmishga aylandi, inkor etildi; ikkinchidan, oʻzbek falsafasida azaldan mavjud boʻlgan, hatto sobiq mustabid tuzum ham yoʻqota olmagan koʻpgina an'anaviy jihatlarning saqlanib qolishi kuzatildi; uchinchidan esa, falsafiy tafakkurda yangi yoʻnalishlar, zamonaviy tushuncha va tamoyillar oʻz oʻrnini topmoqda.

Mavzuning tahlili ushbu jarayon quyidagilarni qamrab olganini yaqqol koʻrsatadi:

– mustabid tuzum mafkurasining ijtimoiy, ma'naviy va falsafiy sohalardagi asoratlarini bartaraf etish; kishilar ongi va qalbiga sobiq tuzumga xos gʻayriinsoniy tushuncha va tamoyillardan mutlaqo farq qiladigan ezgu gʻoyalar va ideallarni singdirish;

– jahon va Sharq xalqlari falsafiy merosini puxta va chuquroʻrganish, bu jarayonda turli gʻoya, mafkuralarning davlatlar hamdaxalqlar takdiriga ta'sirini aniq koʻrsatish va shu asosda istiqlolmafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish; ma'naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz falsafiy merosini yanada kengva chuqurroq oʻrganish;

– falsafiy adabiyotlar, qoʻllanma va darsliklarimizda milliy gʻoya va istiqlolmafkurasi tamoyillarini toʻla aks ettirish; istiqlol talablari asosida ma'naviybarkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ularga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish va boshqalar.

Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasining 12 jildidan joy olgan va ilgari qayd etilgan maqolada ta'kidlanganidek, xalqimiz milliy istiqlolni qoʻlga kiritgach, falsafa fani oldida yangi vazifalar paydo boʻldi. Bu vazifalarga falsafa fanini kommunistik mafkura asoratlaridan tozalash, jamiyat taraqqiyotining yangi davridagi qonuniyatlarini falsafiy tahlil etish, milliy istiqlol gʻoyasining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, respublikada shakllanayotgan huquqiy, demokratik, fuqarolik jamiyatining rivojlanish xususiyatlarini ochib berish va boshqalar kiradi.

***3. Mustaqillik yillarida o'zbek falsafasini yangicha talqin etishning o'ziga xos masalalari.***

Milliy falsafaning bugungi takomili, mohiyat e'tibori bilan, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o'sib borishi, uning jahondagi eng taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rin egallashi, tinchlik, osoyishtalik, bag'rikenglik va hamjihatlikka xizmat qiluvchi ezgu maqsad va g'oyalarga tayanadi. Uning hayotiyligi xalq irodasi va ruhiyatiga, tushuncha va tuyg'ulari, orzu va intilishlariga mosligi bilan belgilanadi, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar to'g'risida xalqimizda to'g'ri tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko'rsatadi.

Bu esa, o'z navbatida xalq dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish va takomillashtirishga yordam beradigan turli sohalarning hamkorligi va rivojlanishini taqazo qiladi. Shu bilan birga, aynan ana shu keng qamrovli murakkab masalalar ularni o'rganish va izohlashga aloqador mavzularning ko'lami va mazmun-mohiyatini belgilaydi. Hayotning o'ziga xos in'ikosi bo'lgan falsafada ham bu jarayon muayyan tarzda aks etmoqda va uning yo'nalishlarlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Istiqlol tufayli yakka mafkura sirtmog'idan qutilgan va eng yuqori darajada e'tibor berilayotgan bugungi o'zbek falsafasida "Falsafa tarixi", "Ontologiya" va "Gnoseologiya", "Ijtimoiy falsafa", "Mantiq", "Etika", "Estetika", "Madaniyatshunoslik" kabian'anaviy yo'nalishlar bilan birga, "Ma'naviyat falsafasi", "Inson falsafasi", "Qadriyatlar falsafasi","G'oyalar falsafasi", "Siyosat falsafasi", "Huquq falsafasi", "Din va hurfiklilik falsafasi" **singari** sohalarda ham ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda ular qatoriga "Iqtisod falsafasi", "Islohotlar falsafasi", "Axborot falsafasi" kabi zamonaviy yo'nalishlar ham qo'shilmoqda.

Mazkur yo'nalishlarning har biri maxsus mavzulari, muammolarning dolzarbligi, ularning o'zaro bog'liqligi, tavsifi va tahlilining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishlarga doir kitob

va risolalar, o‘quv va yordamchi adabiyotlar, tadqiqot va izlanishlar bir butun o‘zbek falsafasining hozirgi qiyofasini ifodalaydi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha bu boradagi dolzarb masalalar va vazifalarni aniqlash imkonini beradi.

Falsafa, hamma zamonlarda bo‘lgani kabi, bugungi kunda ham ijtimoiy tafakkur, jamiyat duyoqarashi va ma’naviy taraqqiyot mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o‘zlashtirish, farovon hayot kechirish va o‘z insoniy salohiyatlarini namoyon etish ehtiyojlari singari ko‘plab omillar bilan uzviy bog‘liq. Falsafiy ta’limotlar barcha davrlarda insoniyatning ilg‘or tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan va jamiyat madaniyatini yanada yuksakroq bosqichga ko‘tarishga xizmat qilgan. Har bir falsafiy g‘oya va mafkura, nazariya va bilimlar tizimi asosan o‘z davri xususiyatlarini aks ettirgan. Ular zamon ruhi va ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtirgan, davr muammolarini hal etishda qo‘l kelgan.

Bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar orasida **falsafa tarixi** masalalari alohida o‘rin egallaydi. Zero, haqqoniy yoritilgan tarix milliy falsafani shakllantirishdagi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tarixni bilmay turib, falsafaning tayanch negizlarini anglab bo‘lmaydi. Chunki falsafiy asoslar o‘z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug‘ilgan. Tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir-birini taqozo etadigan, to‘ldiradigan, taraqqiyot jarayonlari haqida yaxlit tasavvur beradigan, oq-qorani farqlashda asos bo‘ladigan fanlardir. Afsuski, ba’zi qo‘llanmalarda u yoki bu faylasufning ta’limotiga alohida e’tibor beriladi, u haqda fikr yuritiladi, ammo o‘sha davr qanday edi, nima sababdan muayyan olim aynan shu g‘oyani ilgari surgan, nega umrini biror-bir ta’limotni targ‘ib etish bilan o‘tkazgan, degan masalalar diqqat-e’tibordan chetda qoladi. Aslida, davr har qanday faylasuf kamolotida muhim o‘rin tutadi, uning g‘oyalari tug‘ilishi uchun iqtisodiy-siyosiy asos va bu g‘oyalar qo‘llanadigan ijtimoiy amaliyot bo‘lib hisoblanadi. Agar masala bu tarzda qo‘yilmasa, falsafiy ta’limotlarning o‘z davrini aks ettiradigan mohiyat-mazmuniga putur yetadi, ayniqsa o‘sha davr muammolarini ijtimoiy makon va tarixiy zamondan ajratib tahlil qilish natijasida falsafaning milliylik ruhi, xususiyatlari xiralashadi.

Istiqlol davrida falsafa tarixi, uning takomil bosqichlari, alloma bobolarimizning falsafiy merosi bilan bog‘liq muhim masalalarga O.Fayzullaev, M.Xayrullaev, H.Aliqulov, U.Uvatov, B.Turaev, R.Nosirov, M.Qodirov, A.Sharipov, A.Zohidov, G.Navro‘zova, Sh.Madaevalarning asarlari va tadqiqotlari bag‘ishlangan. Bu mavzuda uzoq yillar davomida O‘zFA Falsafa va huquq instituti “Falsafa tarixi” bo‘limi va O‘zMUning shu yo‘nalishdagi kafedrasi mutaxassislari tadqiqotlar olib borganlar. Shu bilan birga “Ma’naviyat yulduzlari” (2001), “Jahon falsafasi tarixidan lavhalar” kitoblari, Imom Buxoriy xalqaro markazi tomonidan chop etilayotgan “O‘zbekiston buyuk allamalar yurti” to‘plami va “Mutafakkirlar” nomli ilmiy-ommabop kitobchalar (Tahrir hay’ati: U.Uvatov, A.Hasanov, B.Turaev, Q.Nazarov, A.Achildiev, M.Qarshiboev, O.Yusupov, N.Jabborov, A.Muxtorov) turkumi bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlar natijasidir.

Falsafiy g‘oyalar va ta’limotlarning insoniyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masalalar hamma davrlarda bo‘lgani kabi, hozir ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida, xususan istiqlol tufayli xalqimiz hayotida ro‘y berayotgan bugungi tub o‘zgarishlar jarayonida falsafa tarixining asl mazmun-mohiyatini va ahamiyatini chuqur bilish, uning usul va g‘oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Falsafaning ko‘plab sohalari va turli yo‘nalishlari orasida borliq to‘g‘risidagi fan «Ontologiya» muhim o‘rin egallaydi. O‘z o‘rni va ahamiyatiga ko‘ra asl falsafani o‘rganish aynan ontologiyadan boshlanadi, deb hisoblaydigan mutaxassislar ham bor. Shuning uchun ham o‘tmishda yashagan faylasuf va mutafakkirlar ijodida ontologiya qamrab oladigan borliq va mavjudlik, koinot va olam, botiniylik va zohiriylik, borliq va yo‘qlik, materiya va harakat, makon va zamon, cheklilik va cheksizlik, inson va jamiyat borlig‘i bilan bog‘liq masalalarga alohida ahamiyat berilgan. Falsafada bu borada turli oqimlar va yo‘nalishlar shakllangan. Borliq bilan bog‘liq serqirra muammolar barcha davrlarda falsafaning asosiy mavzularidan biri bo‘lib kelgan, turli falsafiy maktablar, oqimlar va yo‘nalishlar vakillari tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan.

Bu mavzu olamning dastlabki umumiy asoslarini anglab yetmoqchi bo‘lgan yoki yuz berayotgan voqea-hodisalarning xususiy jihatlari va rang-barangligini tushunishga harakat qilgan barcha faylasuflar uchun bir xil qiziqish uyg‘otadi. Borliqning mohiyatini, xususan uning cheksizligi va inson hayotining unga bog‘liqligini o‘rganish hozirgi davrda ham falsafaning asl mazmun-mohiyatini ifodalovchi masalalardan biridir. Falsafaning an’anaviy yo‘nalishlari bo‘lgan **ontologiya va gnoseologiya, fan falsafasi va metodologiya**bilan bog‘liq bumasalalar M.Abdullaeva, B.To‘raev, B.Karimov, R.Imomalieva, J.Ramatov, Z.Davronov, Sh.Qo‘shoqov, I.To‘xtarov, Z.Qodirova, K.Tulenova, N.Shermuhamedova, X.Salomovalar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Ularning chop etilgan asarlari va amalga oshirilayotgan izlanishlarida ana shu yo‘nalishning dolzarb masalalariga e’tibor qaratilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda **"Huquq falsafasi"** yo‘nalishiga doir masalalar M.Rahmonqulov, H.Boboev, S.Abduxoliqov, H.Odilqoriev, Sh.Mamadaliev, F.Musaev, X.Haydarov, M.Qahhorov A.Qahhorov, M.Qirg‘izboev, R.Ro‘ziev kabi falsafa, huquq va boshqa sohalar mutaxassislarining izlanishlarida o‘z aksini topgan. Bu borada huquqshunoslik nazariyasi va amaliyotining falsafiy masalalari, inson qadri, huquqi va erkinliklari; O‘zbekiston konstitutsiyasining mazmun-mohiyati va falsafiy ahamiyati; islohotlarning huquqiy asoslari, huquqda milliy va umumbashariy tamoyillar, falsafa va huquq o‘rtasidagi munosabatlar, huquqiy qadriyatlar va ularning amaliyoti kabi mavzularga e’tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida yurtimizda qonun ustivorligi ta’minlanadigan huquqiy demokratik davlat va dunyoviy jamiyat qurilishi eng ustivor vazifaga aylandi, dinga nisbatan siyosat “Alloh qalbimizda, yuragimizda”, “Dunyoviylik dahriylik emas” kabi tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Bu davrda dinga yangicha qarash va munosabat bildirish imkoniyati tug‘ildi. Natijada biz uchun yangi bo‘lgan **“Dinshunoslik”** fani qirralari ochila boshladi. Bu fan ilgarigi ateizmdan farqli o‘laroq dinni tanqid qilish, uni jamiyatdan yo‘qotish maqsadida emas, balki unga milliy ma’naviyatning bir bo‘lagi sifatida yondashib, uni xolisona o‘rganishni

o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Ushbu fanni o‘qitishdan maqsad milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg‘unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib berib, talabalarda dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat. Ma’naviyat va din masalalariga munosabat tubdan o‘zgargan hozirgi davrda bu jarayon bilan bog‘liq mavzular A.Ortiqov, A.Abdusamedov, N.Komilov, I.Jabborov, I.Xo‘jamurodov, T.Oqmurodov, Ibrohim Karimov, M.Nuritdinov, M.Rajabova, T.Toshlanov, I.Xudoyberdievlarning dissertatsiya, kitob va qo‘llanmalari hamda tadqiqotlarida o‘z aksini topmoqda. Bu borada dinlar tarixi va nazariyasi, dinshunoslik va hurfikrlilik asoslari; ijtimoiy taraqqiyot va din fenomenining ontologik, gnoseologik, psixologik va sotsiologik xususiyatlarining falsafiy tahlili, hozirgi sharoitda o‘zbek xalqining turmush tarzida diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy hamkorlik **tuyg‘ularining** shaklllanish xususiyatlari; islom dini va falsafasi, tasavvuf va komil inson; diniy aqidaparastlik va terorchilikka qarshi kurash masalalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda turli kitob, risola, ma’lumotnomalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etilmoqda.

**"Ekologiyaning falsafiy muammolari"**yo‘nalishi mavzulariga S.Mamashokirov, E.Hoshimova, Yu.Shodimetov, S.Sanginov, A.Berdimurotova kabi olimlarning ilmiy ishlaribag‘ishlangan. Ularning tadqiqotlarida ekologiya tarixi va nazariyasining falsafiy masalalari, inson va tabiat, jamiyat va biosfera, ijtimoiy ekologiya, ekologik bo‘hronning falsafiy-metodologik tahlili va ekologik xavfsizlik muammolari, ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik, ilmiy-texnik taraqqiyot va ekologik ta’lim masalalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi zamon falsafa va fan taraqqiyoti zamonaviy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi yangi paradigma va metodlarga katta ehtiyoj sezmoqda. Bu borada sinergetikaning tabiiy-falsafiy va g‘oyaviy asoslarini tahlil qilish, muqarrar ravishda, uningshakllanishi hamda namoyon bo‘lish

xususiyatlarini o‘rganishni taqozo etadi. Sinergetika nafaqat tafakkurga yangi ma’no-mazmun olib kirdi, balki, ontologizm, gnostitsizm, pozitivizm, reduksionizm, relyativizm, postmodernizm g‘oyalari takomiliga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek undan tabiat, jamiyat, inson, ma’naviy-estetik muhit, informatsion va texnogen faoliyatni yangicha tasvirlash, tahlil qilish, ularni guruhlarga ajratish, kuzatish, talqin qilishga doir integrativ tadqiqot metodlarini qo‘llashda samarali foydalanish mumkin.

Bugungi kunda ilmiy jamoatchilik fanlararo tadqiqot sohasi sifatida vujudga kelgan ushbu yangi ilmiy yo‘nalish va undagi izlanishlar bilan bog‘liq masalalarini qizg‘in va keng muhokama qilmoqda. Bu muhokamalarda maxsus fanlar – matematetika, fizika, kimyo, biologiya, iqtisodiyot va boshqa fan vakillari bilan bir qatorda faylasuflar ham qatnashmokda. I.Raximov, M.Usmonov, Sh. Qahhorova, D.Bozorov, M. Niyazimbetomlarning izlanishlari **“Sinergetika”** faniga doir turli mavzularga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalishda hozirgi kungacha olib borilgan ilmiy izlanishlarga asoslanib ta’kidlash joizki, sinergetika zamonaviy tadqiqot sohasi, falsafa va fanning shu kungacha shakllangan ko‘pgina muammolarini qaytadan tahlil qilish imkonini beradigan yangi metodlardan biriga aylandi.

Zamonaviy o‘zbek falsafasi oldida nihoyatda mas’uliyatli va dolzarb vazifalar turibdi. Avvalo, ajdodlarimiz yaratgan boy va o‘lmas falsafiy merosning bosqinchi va istilochilar tomonidan unutilishga yoki yo‘qotishga harakat qilingan jihatlarini tiklash, kelajak avlodlarga omon-eson yetkazish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, barchamizning zimmamizga tariximiz kabi qadim, ma’naviyatimiz kabi teran qadriyat bo‘lgan o‘zbek falsafasini yanada mukammallashtirish, uni davr talablariga mos, zamonaviy fan yo‘nalishiga aylantirish borasida faol va omilkor bo‘lish mas’uliyatini yuklaydi.

Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim jarayonlardan yana biri inson huquqlari va manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu - Asosiy qonunimizda mujassam etilgan qoidalar, maqsad va g‘oyalarni amalga oshirish yo‘lida xizmat qilishdir. Shu o‘rinda qabul qilinayotgan qonun va hujjatlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g‘oya, xulosalar, takliflarni keng xalq ommasi

ongiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta’kidlash joiz. Chunki huquqiy jamiyat, falsafiy tafakkur va barkamol inson tushunchalari o‘zaro bog‘liq. Madaniy bozorni ham, ma’naviy sog‘lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi. Ularni voyaga yetkazmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish to‘g‘risida fikr yuritish qiyin. Shu bois, o‘z xalqi tarixini, milliy davlatchilik va boshqaruv madaniyati an’analarini yaxshi biladigan, milliy g‘ururi yuksak avlodni tarbiyalash muhim vazifamizga aylandi.

Dunyo globallashib borayotgan hozirgi zamonda ezgu g‘oyalar va ular negizidagi tamoyillar asosida yashash va ishlash, o‘qish va o‘rganish lozimligi davr talabi bo‘lib qoldi. Bu yo‘nalishda vayronkor g‘oyalar, kosmopolitizm va fundamentalizm, “ommaviy madaniyat” va sivilizatsiyalar kurashi kabi bo‘zg‘unchi mafkuralar ta’siriga tushmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalash ham falsafaning eng dolzarb masalalari sirasiga kiradi.

***4. Harakatlar strategiyasi-o‘zbek falsafasining yangi bosqichi.***

**Mavzuning asosiy mazmuni.** XX asr oxirida xalqimizning asriy orzulari royobga chiqdi, 1991 yilda O‘zbekiston mustaqillika erishdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylandi. Mamlakatimizda yangi jamiyat qurish uchun tub o‘zgarish va islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonning milliy g‘oya nazariyasi, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor tamoyillari bilan aloqasini o‘rganish, uning umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini anglab olish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, ta’kidlash joizki, inson hayoti va jamiyat taraqqiyotida turli-tuman g‘oyalarning o‘rni va ahamiyati mavzusi nihoyatda muhim falsafiy masalalardan biridir. Negaki, inson va jamiyat muayyan g‘oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. o‘zi yaratgan g‘oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e’tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. yuksak g‘oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari, jamiyatni ezgu amallar tomon yetaklaydi. G‘oyasi yetuk, e’tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko‘rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard

qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To‘maris, Spetamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Boburmirzo kabi mard farzandlari – buyuk g‘oya sohiblaridir. Ming yillar o‘tsa ham, ulug‘ ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o‘chmaydi. Chunki ular yuksak g‘oyalar – vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu-urfon rivoji yo‘l ida jon fido qilganlar. Ahmad Yassaviy butun umrini haq ishqida  o‘tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug‘vor g‘oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g‘oya tufayli gulxan alangasida ham o‘z e’tiqodidan qaytmagan, Nasimiyni tovonidan so‘ysalar ham, ishqi ilohiy deb jon bergan.

Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o‘tmishidan ham, qaysi sohada bo‘lmasin, mardlik va jasorat ko‘rsatish uchun insonga albatta ulug‘vor g‘oya kerakligiga ko‘plab misollar topiladi. Muayyan bir g‘oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo‘ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgani, jamiyatning taraqqiyot yo‘l idagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois, umuminsoniy haqiqatga aylanadi. jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan nazariy ta’limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste’dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zaxmat chekkanini ko‘ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig‘idir.

Ularning har biri o‘z davrida o‘zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g‘oyalarni yaratganlar. Bu g‘oyalarga tayanib bunyodkorlik yo‘l ida, ezgu maqsadlarga erishish uchun xormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga «o‘zini anglamoq buyuk saodat» ekanini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Hindiston va Pokiston ozodligi yo‘l iga umrini baxshida aylagan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo‘lgan ulug‘ insonlardir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch – bunyodkorlik va

buzg‘unchilik g‘oyalari hamisha o‘zaro kurashadi. bunyodkor g‘oya insonni ulug‘laydi, uning ruhiga qanot bag‘ishlaydi. sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g‘oyalar asos bo‘lgan. Buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar esa xalqlar boshiga so‘ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. O‘rta asrlardagi salb yurishlari, diniy fanatizm va ateizm, fashizm va bolshevizmga asos bo‘lgan g‘ayri insoniy g‘oyalar shular jumlasidandir.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg‘or g‘oyalar tug‘ilaveradi. buzg‘unchi g‘oyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo‘ladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, ya’ni doimo xushyor va ogoh bo‘lib yashamoq hayotning asosiy zarurati bo‘lib qolaveradi.

Milliy g‘oya va xalqimizning bosh strategik maqsadi – ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko‘p mulkchilikka va ular o‘rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo‘lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi. Iqtisodiy taraqqiyotni bozordagi talab va taklif yo‘l ga soladi va boshqara boshlaydi. Uni markazdan turib boshqarishga, mablag‘ va fondlarni rejali taqsimlashga hojat qolmaydi. Sobiq sotsialistik mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, markazdan turib boshqariladigan rejali iqtisodiyot oxir-oqibatda tanazzulga yuz tutadi.

Ko‘p mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotini joriy qilish orqali yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat’i nazar, munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta’minlash – davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Lekin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish va ularni amalda joriy qilishning tayyor andozasi yo‘q. Bu borada biz hatto jahondagi eng yuksak rivojlangan mamlakatlar tajribasini ham ko‘r-ko‘rona qo‘llay olmas edik. Chunki bizning mamlakatimiz iqtisodiyotining

tarkibiy tuzilishi, qazilma boyliklari va iqlim sharoiti, tabiiy resurslari, xalqimizning mentaliteti, aholi tarkibi va o‘sishi biror mamlakatnikiga aynan o‘xshamaydi. Boshqa davlatlarda yaxshigina samara beradigan taraqqiyot modeli bizda hech qanday natija bermasligi yoki aksincha, inqirozni yanada chuqurlashtirishi mumkin edi (masalan, ayrim hamdo‘stlik mamlakatlarining shok terapiyasi usulini qo‘llab, qiyin ahvolga tushib qolganini eslang).

Shu bois xalqimiz irodasi bilan tanlab olingan va o‘zimizga mos rivojlanish bu ijtimoiy larzalarsiz, inqilobiy sakrashlarsiz, tadrijiy tarzda olg‘a borishni taqozo etadigan yo‘l dir. Milliy g‘oya ana shu yo‘l da fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikr bo‘lishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini qat’iy belgilab olib, asosiy kuch va imkoniyatlarni bir joyga to‘plab, avvalo ana shu ustuvor yo‘nalishlar boyicha taraqqiyotni ta’minlash, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali bozor munosabatlariga asoslangan demokratik odil jamiyat barpo etish O‘zbekiston tanlagan yo‘l ning ma’no-mazmunini tashkil etadi.

Tanlab olingan bu yo‘l  hamda unga xos milliy g‘oyaning strategik maqsadlari jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor bo‘lgan quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Siyosiy sohada jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta’minlash – mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishidir.

Birinchidan, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish. milliy istiqlol g‘oyasining siyosiy sohadagi xususiyatlarining mohiyati ana shularda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalqning mentaliteti, siyosiy madaniyati, o‘z haq-huquqlarini, tub manfaatlarini anglash darajasi, xullas, siyosiy va ma’naviy yetukligining davlat qurilishida qanchalik faol ishtirok etishini belgilaydi.

Binobarin, siyosiy hayotni erkinlashtirishning asosiy shartlaridan biri

xalqning siyosiy ongini o‘stirish, unga demokratik erkinliklarning ma’no-mohiyatini to‘g‘ri tushunib olish va o‘zlashtirishga imkon yaratishdan iboratdir.

Siyosiy madaniyat, bir tomondan fuqarolarning, ikkinchi tomondan, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning qonunga boysunishidan boshlanadi. Demak, biz barpo etayotgan jamiyatda nafaqat aholi huquqiy bilimlarining oshishi, uning ongi yuksalishiga, balki hokimiyatning barcha mustaqil tarmoqlari, nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy institutlarining faoliyat samaradorligi ortishiga ham jiddiy e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotga intilayotgan, siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo‘l idan borayotgan har qanday jamiyat huquqiy madaniyati yuksak, ozod va erkin shaxsni tarbiyalashga intiladi. Zero, shundagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson huquqlarini ta’minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash tamoyili jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, amalga oshiruvchisi, rivojlantiruvchisi – insondir. Demokratiya – faqat xalq hokimiyati bo‘lib qolmay, u ayni paytda har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning o‘z mamlakati kelajagi, o‘z taqdiri oldidagi mas’uliyati hamdir.

Demokratiya va siyosiy hayotni erkinlashtirish zaruratini oxlokratiyadan (oxlos – to‘da, olomon), ya’ni turli guruhlarning siyosiy o‘zboshimchaligidan, hokimiyat idoralariga noo‘rin talablar qoyishidan, tazyiq o‘tkazishidan farq qilish lozim. Buo‘z navbatida demokratiya, siyosiy hayotni erkinlashtirish orqali fuqarolardan o‘z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirishni, yuksak siyosiy madaniyatga ega bo‘lishni talab qiladi.

Ikkinchidan, jamiyatimizdagi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma’nodagi ko‘p partiyaviylik tamoyilini qaror toptirish. mazkur jihatlar milliy istiqlol g‘oyasining siyosiy sohadagi o‘ziga xos tamoyillarini ifodalaydi.

Mulkchilikning rang-barang shakllari qaror topayotgani, ular teng huquqliligining davlat tomonidan kafolatlanayotgani jamiyatning ijtimoiy-

tabaqaviy tarkibini o‘zgartirmoqda. Bugun yangi ijtimoiy qatlam va guruhlar – sarmoyadorlar, tadbirkorlar va o‘rta sinf vujudga kelmoqda. Mulk shakllari xilma-xiligi va ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga mos holda turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar hamda harakatlar ham paydo bo‘lmoqda. Mamlakatimizda ko‘p partiyaviylik tizimining shakllangani buning yaqqol dalilidir, ular kundan-kunga kuchga to‘lib o‘z mavqelarini oshirib bormoqda.

Turli partiyalararo manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar muvozanatini ta’minlaydigan ma’naviy omil bu – milliy g‘oyadir. U ijtimoiy guruhlar manfaati va mafkurasidagi umumiylikni, ya’ni umum milliy manfaatlarni va yagona oliy maqsadni aks ettiruvchi g‘oyadir. U millatning jipsligiga xizmat qiluvchi ma’naviy kuchdir. Shu bois mamlakatimiz mustaqilligi, kelajak taraqqiyotimiz uni xalqimiz ongiga muntazam va bosqichma-bosqich singdirib borishni taqozo etadi. milliy g‘oya negizida milliy mafkura shakllanadi.

Uchinchidan, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyatning konstitutsiyaviy bo‘linishi tamoyiliga qat’iy amal qilish, jamiyat a’zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini royobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni ishga solish taqozo etadi.

Bu mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchning sub’ektiv xohish irodasiga qaram bo‘lmasdan ishni faol tashkil qiladigan, o‘z mohiyatiga ko‘ra, jamiyatning olg‘a siljishiga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo‘lgan samarali tizimni shakllantirish demakdir.

Bunday samarali tizim – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatidir. Huquqiy davlatda nafaqat hokimiyatninguch tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijroiyava sud hokimiyati bir-biridan ajratiladi va bir-biridan mustaqil harakat qiladi, balki ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy institutlar ham erkin va mustaqil bo‘lib, hech qanday kuchga qaram bo‘lmaydi. Hokimiyat bo‘g‘inlari va ijtimoiy institutlar faqat konstitutsiya va amaldagi qonunchilikka tayanib ish tutadi. Ularning o‘zaro munosabati va hamkorlik mexanizmi ham konstitutsiya va amaldagi qonunlar orqali belgilab qoyiladi. Ularning mustaqilligi, bir-biriga

bevosita boysunmasligi, faqat qonun oldida mas’ulligi, amalda ularni butun jamiyat oldida mas’ul qilib qoyadi.

To‘rtinchidan, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o‘tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquqi va nufuzini oshirishni ko‘zda tutadigan «kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini amalga oshirish.

Bu odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari, davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko‘proq huquqlar berilishi demakdir.

Nodavlat, jamoat tashkilotlarining ko‘payishi, ularning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borayotgani fuqarolik jamiyati asoslari tobora mustahkamlanib, rivojlanayotganidan dalolat beradi. Aynan shunday tashkilotlarning faolligi va mas’uliyatining ortgani, fuqarolarning ongi va tasavvurida, kundalik hayotida ular tobora ko‘proq ishtirok etayotgani «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini hayotga tatbiq etishning muhim sharti va shaklidir. «kuchli jamiyat» tushunchasining mohiyati shundan iboratki, xalq jamoat tashkilotlari orqali davlat idoralari faoliyatini nazorat qiladi, ularning o‘z vazifalari va jamiyat oldidagi burchlarini to‘g‘ri va samarali bajarishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida, xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos holda amalga oshiradigan iste’dodli, izlanuvchan, chuqur bilimli va yuksak malakali, vatanga, ona zaminimizga sadoqatli yosh kadrlarni tanlash joy-joyiga qoyish va yangilashga imkon beradigan tizimni takomillashtirish. Bu hech qaysi zamonda osonlikcha hal bo‘lmaydigan, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi o‘zgarishini taqozo etadigan, odatda sub’ektivizm, manfaatparastlik, urug‘-aymoqchilik kabi ko‘p illatlarni bartaraf etish, jamiyatni tubdan yangilashni talab qiladigan jarayondir.

## 3-mavzu. «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o‘zbek falsafasining

**zamonaviy konsepsiyasi.**

**Reja:**

1. O‘zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘li. Milliy tiklanish bosqichi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. O‘zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida jamiyat rivoji va ta’lim-tarbiya masalalariga doir yangicha g‘oya va qarashlar
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi – milliy yuksalishning asosi
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalari

***Tayanch tushunchalar:*** *Mustaqillik , demokratiya, mantiq, fuqaro, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquq, erkinlik, Konstitutsiya, Oliy Kengash.*

**1.** Mamlakatimizning XX asr so‘nggida istiqlolga erishishi va mustaqil O‘zbekiston davlatining paydo bo‘lishi xalqimizning tarixiy g‘alabasidir. O‘tgan yillar mobaynida yurtimiz hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida ulkan ishlar amalga oshirildi. Tarixan qisqa davrda milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o‘tkazish o‘z-o‘zidan oson kechmadi, albatta.

Mustaqillik – xalqimizning ulkan yutug‘idir. Zero, mamlakatimizda millatlararo va dinlararo ziddiyatlarning oldini olish, ichki va tashqi buzg‘unchi kuchlarni bartaraf etish boyicha amalga oshirilgan keskin choralar va ularning ahamiyati vaqt o‘tibgina yanada qadrli bo‘lmoqda. Mamlakatni isloh etish strategiyasining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi barqaror taraqqiyotimizni uzoq yillarga ta’minladi. Bunda mustaqil rivojlanishning dastlabki davrida milliy davlatchilik va barqaror taraqqiyot poydevorining barpo etilishi asos bo‘lib xizmat qildi.

Shu bilan birga, mustaqillik yillarida amalga oshirgan barcha ishlar uzoq muddatli yuksak maqsadga – rivojlangan zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratish va uning jahon hamjamiyatida

munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan olis va murakkab yo‘l ning faqat bir qismi, shu boradagi dastlabki qadamlar, xolos.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmonida ta’kidlanganidek, bugungi globallashuv asrida, birinchi navbatda erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar jarayonidagi o‘z o‘rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablariga uyg‘un va hamohang bo‘lib qadam tashlaydigan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Mantiqning o‘zi, taraqqiyotimiz qonuniyatlari, erishilgan marralar, o‘z oldimizga qoyayotgan maqsad jamiyatimizning izchil rivojlanishiga, mamlakatimizning nufuziga tuzatib bo‘lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan havolanishga, qo‘lga kiritilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilmasdan, demokratik islohotlarni davom ettirishni talab qilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida ishlab chiqilgan taraqqiyot yo‘li o‘z milliy davlatchiligimizni, iqtisodiyotimizni va ma’naviyatimizni kamolot cho‘qqisiga olib borishga qaratilgan edi. Unda maqsadlar aniq belgilab olingan bo‘lmb, bu madaniy va barqaror bozor iqtisodiyotiga, oshkora tashqi siyosatga asoslangan fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat barpo etishdir. Faqat zamondoshlarimizning taqdirigina emas, balki bizdan keyin shu zamonda yashaydigan bo‘lg‘usi kelajak avlodlarimizning taqdiri ham bizning qanday davlat qurishimizga bog‘liq edi. O‘shandayoq bu davlat O‘zbekiston xalqining munosib hayot kechirishini, uning huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlari va madaniyati tiklanishini, ma’naviy kamol topishini ta’minlashi kerakligi belgilab olingani bejiz emas.

Istiqlolning dastlabki yillaridayoq, mazkur Konstitutsiyada ilgari surilgan g‘oya va qoidalarga tayangan holda, avvalo butun jamiyat hayotining barcha sohalari kabi, ma’naviy qadriyatlar sohasida ham katta ahamiyatga molik bo‘lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida nihoyatda muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi, sobiq ittifoqdan mutlaqo yangi

siyosiy tizimga o‘tish, ya’ni hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish va bu borada hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan edi.

O‘tgan yillar mobaynida davlat idoralari tizimida zamonaviy parlamentarizm an’analariga mos tarzda faoliyat yurituvchi, ko‘p partiyaviylik asosida saylanadigan oliy vakillik organi, qonun chiqaruvchi idora – Oliy Majlis qaror topdi. Sud hokimiyati idoralari ham yangi qonunlar asosida shakllantirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ta’sis etilgani huquqiy davlat sari qoyilgan muhim qadam bo‘ldi. Bunday sud O‘zbekiston tarixida ilk bor qaror topdi va bu o‘ta muhim huquqiy demokratik qadriyat sifatida baholandi. Konstitutsiyaviy sudning eng asosiy vazifasi – Konstitutsiyaning ustunligini ta’minlash; qonunlar, prezident farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining O‘zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini nazorat qilish va bu xususda o‘z xulosasini berishdan iborat.

Bunday sharoitda, ushbu ishlarni davom ettirish bilan birga, keng miqyosdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohot va o‘zgarishlarni amalda o‘zini to‘la oqlagan modelga muvofiq ravishda davom ettirish davlat va jamiyatning barqarorligi va zarur rivojlanish sur’atlarini ta’minlash, hayot sifatini oshirish, xalqaro maydonda o‘zimizga munosib o‘rin egallash imkonini beradi.

«Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» g‘oyasining mazmun-mohiyati shundan iboratki, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qudrati mustahkamlanib, uning siyosiy-huquqiy madaniyat saviyasi yuksalib borgani sari mamlakatni isloh qilishning tanlab olingan shakli mantig‘ining o‘zi kelgusidagi demokratik yangilanish va eng avvalo, boshqarishda fuqarolarning rolini kuchaytirish borasidagi vazifalarni ilgari sura boshlaydi. Bu, birinchi navbatda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirish, aholining turli qatlam va guruhlari manfaatlarini ifodalovchi, himoyalovchi siyosiy va ijtimoiy institutlarning rolini oshirishga doir masalalariga tegishlidir. Mazkur jarayon davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda, ularning faoliyati ustidan

nazoratni amalga oshirishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ma’naviy taraqqiyot tamoyillarini jahon tajribasiga mos tarzda hayotga joriy etishda, avvalo uni puxta o‘rganish va ijobiy jihatlarini rivojlantirishga harakat qilindi. Shu asosda natijasida paydo bo‘lgan edi.amalga oshirilgan tadrijiy islohotlar jarayonida ma’naviy hayot o‘zgarishlari dinamikasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalar bilan bog‘liq zamonaviy mezonlarini yaratishga alohida ahamiyat qaratildi. Bundan maqsad ma’naviy sohada ham mustaqil taraqqiyot imkoniyatlarini amalda ko‘rsatishga yordam beradigan natijalarga erishish, ma’naviyat sohasidagi quruq shiorlar va bir tomonlama yondashuvlardan amaliy ishga o‘tish samarasini namoyon qilishdan iboratdir. O‘tgan yillarda ma’naviy hayot o‘zgarishlar dinamikasini ta’minlagan ijtimoiy-siyosiy tizim rivojlanishining mohiyatini tashkil qiladigan yangilanishlarning asosiy yo‘nalishi bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy jarayonlarning, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch!” tamoyili bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani barchaga ma’lum. Bu borada ham, o‘tgan yillar tajribasi mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot yo‘lining ma’naviy hayot o‘zgarishlar dinamikasi uchun asosiy omil bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi.

Bu jihatdan, 1992 yilda  mamlakatimizning Asosiy qonuni - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning jahon andozalariga, dunyo xalqlarining demokratik taraqqiyot tamoyillariga mos keladigan ushbu Konstitutsiya qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi maruzasida  alohida ta’kidlanganidek, istiqlol davrining o‘tgan yigirma besh yili – “tarix uchun bir lahza, xolos. Shu qisqa davrda jonajon O‘zbekistonimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi, tom ma’noda ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ana shu mashaqqatli va sharafli yo‘lda erishgan barcha yutuqlarimizni, eng avvalo, Konstitutsiyamiz bilan bog‘lashimiz, albatta, bejiz emas. Nega deganda, Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish

yo‘limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi. To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.”[2]

Istiqlolning dastlabki yillaridayoq, mazkur Konstitutsiyada ilgari surilgan g‘oya va qoidalarga tayangan holda, avvalo butun jamiyat hayotining barcha sohalari kabi, ma’naviy qadriyatlar sohasida ham katta ahamiyatga molik bo‘lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida nihoyatda muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi, sobiq ittifoqdan mutlaqo yangi siyosiy tizimga o‘tish, ya’ni hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish va bu borada hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan edi.

O‘tgan yillar mobaynida davlat idoralari tizimida zamonaviy parlamentarizm an’analariga mos tarzda faoliyat yurituvchi, ko‘p partiyaviylik asosida saylanadigan oliy vakillik organi, qonun chiqaruvchi idora – Oliy Majlis qaror topdi. Sud hokimiyati idoralari ham yangi qonunlar asosida shakllantirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ta’sis etilgani huquqiy davlat sari qoyilgan muhim qadam bo‘ldi. Bunday sud O‘zbekiston tarixida ilk bor qaror topdi va bu o‘ta muhim huquqiy demokratik qadriyat sifatida baholandi. Konstitutsiyaviy sudning eng asosiy vazifasi – Konstitutsiyaning ustunligini ta’minlash; qonunlar, prezident farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining O‘zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini nazorat qilish va bu xususda o‘z xulosasini berishdan iborat.

Bugungi kunda jamiyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismi bo‘lgan mazkur

---

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. - Ўзбекистон Республикаси Президентининг виртуал қабулхонаси, 07.12.2017, http://www.president.uz/ uz/lists/view/1328 2/16

jarayonni xalqimizning ezgu maqsadlariga mosligini ta’minlash, bu borada mas’ul bo‘lgan boshqaruv va tashkiliy tuzilmalar tizimining faoliyatini samarali tashkil qilish, shu sohadagi ishlarning natijadorligiga erishish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy usulllar va imkoniyatlarni izlab topish ushbu jabhadagi izlanishlarning davomini belgilaydi.

Mamlakatimizda ma’naviy taraqqiyotni tashkil etish tizimi va uning elementlarini ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar kompleksi sifatida, markaz va joylarda hokimiyatni tashkil etish shakli, vakolatlarni taqsimlash va amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq omillar majmui tarzida takomillashtirish kutilgan natijani berishi mumkin.

**2.** Tarix saboqlariga ko‘ra har bir jamiyat tarixida shunday burilish davrlar bo‘ladiki, unda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun dorilomon va muayyan rivojlanish bosqichiga xos ustuvor tamoyillar hamda dolzarb vazifalarni aniqlash hayotiy ehtiyojga aylanadi.

Bugungi davr xuddi ana shunday milliy davlatchiligini tiklab, mustaqil rivojlanish yo‘l idan borayotgan xalqimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun ustuvor yo‘nalishlar va dolzarb vazifalar belgilab olinayotgan, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mamlakatimizni eng ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqish uchun keng imkoniyatlar ochilgan davrdir.

Avvalo ta’kidlash lozimki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari ustuvor bo‘lgan demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Mazkur jarayonda insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish, uning manfaatlarini islohotlarning asosiy mezoni tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etdi.

Tarixan bu qisqa davr xalqimiz uchun iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda bo‘lgani kabi, mamlakatimiz va xalqimiz uchun har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo‘lganini bugun hech kim inkor etolmaydi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik

tamoyil va talablarga asoslangan huquqiy makon vujudga keltirildi. Mustabid tuzumning tazyiq va zo‘ravonligidan jahon andozalariga mos keladigan huquqiy me’yorlar sari keskin burilish yasaldi. Mamlakatimiz qonunlarini inson huquqlari sohasidagi umuminsoniy me’yor va andozalarga muvofiqlashtirish, bu sohada milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo‘shilishda davom etib, ular boyicha majburiyatlarni bajarishning samarali mexanizmi yaratildi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutiyasida inson va fuqarolarning huquqlari, erkinlik va burchlari kafolatlari belgilab berilgan.

Istiqlol yillarida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy asoslar shakllandi.

**Iqtisodiy asoslar.** Bu borada, ta’kidlash joizki, eski sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot yangi jamiyatni shakllantirish uchun asos bo‘la olmas edi. Istiqlol yillarida bu sohada nihoyatda katta o‘zgarishlar roy berdi. Yangi iqtisodiy tizim va mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Bozor munosabatlari va iqtisodiy plyuralizm bunda bosh yo‘nalish qilib olingan bo‘lsa-da, aholini ijtimoiy himoyalash ustuvor jihat sifatida belgilandi. Ana shularning barchasi mamlakatimizda bu sohadagi yangilanish va zamonaviy tamoyillarni shakllantirish borasidagi tub o‘zgarishlarning iqtisod bilan bog‘liq asoslarini yaratish imkonini berdi.

**Ijtimoiy-siyosiy asoslar.** Yangi jamiyatni barpo etishning siyosiy asoslari mustahkam bo‘lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘p bor isbotlangan haqiqatdir. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylangan O‘zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Xalqaro andozalarga to‘la mos keladigan saylov tizimi shakllandi, qonun ustuvor bo‘lgan demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining asoslari mustahkamlandi, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash tizimi yanada takomillashdi. Ana shularning barchasi yurtimizda islohotlarning ijobiy natijalarini ta’minlaydigan ijtimoiy-siyosiy asoslarni yaratish imkoniyatini ochdi. Har qanday

jamiyat va mamlakatda xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongi o‘zgarmasa, shu joyda yashaydigan xalq va millat o‘zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ana shu masalalarni uyg‘un holda hal qilish bu boradagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan ijtimoiy-siyosiy asoslarni shakllantirishga yordam berdi.

**Ma’naviy asoslar** qonun ustuvorligi ta’minlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatda amalga oshayotgan ma’naviy sohadagi o‘zgarishlar bu yo‘nalishdagi islohotlarning tarkibiy qismidir. Xalq ma’naviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog‘liq sa’y-harakatlar bu borada katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, xalqimizning tarixiy xotirasi, o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan boy madaniy merosdan to‘la-to‘kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs, turli qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Bu esa davlatimiz siyosatining jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlar mazmuniga mosligini ko‘rsatadi.

Ammo hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi. Shu bois, avvalo roy berishi mumkin bo‘lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko‘rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur oylangan, aniq maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo‘lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi. Mustaqil taraqqiyotning o‘tgan davrida amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma’lum o‘zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo‘l idagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarish zarurligi davr talabi ekanligi shubhasiz.

Ushbu masalalar har tomonlama va chuqur tahlil qilingan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni u bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy hayoti bilan bog‘liq strategik maqsad va vazifalarni belgilab, islohotlarning yangi davrini boshlab bergani bilan nihoyatda muhim tarixiy ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlari ana shundan dalolat beradi. Aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan **2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi** quyidagilarni nazarda tutadi:

- davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

- qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish,

yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizasiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

- ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizasiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

- ijtimoiy sohani rivojlantirish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Hozirgi kungacha 7 mingdan ortiq sog‘liqni saqlash, maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablar yuqori tezlikdagi Internetga ulangan bo‘lsa, keyingi 2 yilda yana 12 mingta muassasa tezkor Internetga ulanadi. Bu vazifalarni ko‘zda tutgan holda, **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini** ishlab chiqishni ikki oy muddatda yakunlash lozim.

Kelgusida bu ishlarni tizimli tashkil etishga bosh-qosh boʻlishi uchun hukumatda – Bosh vazir oʻrinbosari, vazirlik va idoralarda hamda hokimliklarda esa – alohida oʻrinbosar lavozimlari joriy etiladi.

Parlament ilm-maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar toʻgʻrisida hukumat, tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotini muntazam eshitib borishi lozim.

Hurmatli parlament aʼzolari!

Endi 2020 yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur boʻlgan dasturiy va maqsadli vazifalarga toʻxtalib oʻtishga ijozat bergaysiz.

**Birinchidan,** 2020 yilda makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir.

Biz shu yildan boshlab inflyatsiyaviy targetlash tizimini joriy qilishga oʻtdik. Bu borada Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi iqtisodiy oʻsish bilan inflyatsiya oʻrtasida muvozanatni taʼminlashi, tashqi xavf-xatarlarni hisobga olishi zarur.

Davlat tomonidan 37 turdagi mahsulot va xizmatlar narxining tartibga solinayotgani erkin raqobatga salbiy taʼsir qilmoqda. Shuni hisobga olib, endi asosiy eʼtiborni narxlarni belgilashga emas, balki korxonalar oʻrtasida sogʻlom raqobatni taʼminlash orqali narxlarni pasaytirishga va sifatni oshirishga qaratishimiz kerak.

Xalqaro tajribani oʻrganib, raqobatni olib kirish mumkin boʻlgan monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yoʻl ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim. Bu borada tabiiy monopoliya va raqobat toʻgʻrisidagi qonunlarni yangilash hamda Iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi.

Isteʼmol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini taʼminlashning yagona yoʻli – meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini koʻpaytirish hamda “daladan doʻkongacha” boʻlgan uzluksiz zanjirni yaratishdir. Hukumat barcha darajadagi hokimliklar bilan ushbu vazifa ijrosini toʻliq taʼminlashi kerak.

Budjet mablag‘larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish zarur.

Joriy yilda davlat tashqi qarzining yuqori chegarasini belgiladik. Bundan buyon xalqaro moliya tashkilotlaridan olinadigan mablag‘larni qaytarish imkoniyati va ularning natijadorligiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida” va “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi qonunlar loyihalarini ishlab chiqsin.

Islohotlarimizga jiddiy to‘sqinlik qilayotgan “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilmas ekan, sog‘lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, “yashirin iqtisodiyot”ning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlasin.

Shuningdek, “yashirin iqtisodiyot” ulushi yuqori bo‘lgan alkogol va tamaki bozorini tartibga solish uchun tovarlarni raqamli markirovka qilish tizimini joriy etish ishlari boshlandi. Bu tizim kelgusida farmasevtika mahsulotlari uchun ham qo‘llaniladi. Vazirlar Mahkamasi qiymati 200 million dollar bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hisobidan amalga oshirilayotgan ushbu “raqamli markirovka va onlayn kassa” loyihasini alohida nazoratga olsin.

**Ikkinchidan,** iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish zarur.

Joriy yilda 23 milliard dollarlik investitsiyalar o‘zlashtiriladi hamda 206 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushiriladi. Jumladan, Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksida sintetik suyuq yoqilg‘i, “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi, ammiak va karbamid ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi. Yangi Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent metrosining Sirg‘ali tarmog‘i, yer usti halqa yo‘lining birinchi bosqichi ishga tushiriladi.

2020 yilda o‘zlashtiriladigan investitsiyalarning salmoqli qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar va kreditlar bo‘lishini alohida qayd etmoqchiman. Investorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash,

infratuzilma yaratish xarajatlarini qisman davlat tomonidan qoplash mexanizmlari joriy etilmoqda.

Shuningdek, foyda solig‘ini hisoblashda yangi texnologik uskunalar xarid qilish, yangi ob’ektlarni qurish va modernizatsiya qilish xarajatlari bo‘yicha chegirmalar kengaytirildi.

Mavjud 3 mingga yaqin davlat ishtirokidagi korxonalarni xatlovdan o‘tkazib, xususiy sektor va raqobat rivojlangan yo‘nalishlardagi korxonalarda davlat ishtirokini keskin kamaytirish choralarini ko‘rish kerak.

Navoiy va Olmaliq tog‘-kon metallurgiya kombinatlari kabi yirik sanoat korxonalarida yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish bilan birga, ushbu korxonalarni xalqaro moliya bozorining to‘laqonli ishtirokchisiga aylantirish lozim. Buning uchun 2020 yilda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish, zaxiralarni qayta hisoblash, korporativ oshkoralikni tatbiq etish kabi ishlarni yakunlash zarur.

Neft-gaz sohasidagi davlat korxonalarini boshqarishga xorijiy ekspertlarni jalb etib, ularning samaradorligini oshirish va xarajatlarini optimallashtirish, qarz miqdorini kamaytirishga erishish lozim.

Vazirlar Mahkamasi ana shu vazifalarni to‘liq hisobga olib, ikki oy muddatda Davlat ishtirokidagi korxonalarga egalik qilish, ularni boshqarish va isloh etish strategiyasini ishlab chiqsin.

Xorijiy investorlarni faol jalb etish maqsadida joriy yil mart oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumini yuqori saviyada o‘tkazish zarur.

Investitsiya jalb etishning samarali vositalaridan biri bo‘lgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini transport, energetika, yo‘l, kommunal, tibbiyot, ta’lim kabi sohalarga keng tatbiq etish kerak.

Hozirgi vaqtda qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim “drayver”laridan biriga aylandi. Bu sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 6 foizdan oshgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlab turibdi. Ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish uchun qurilishga oid normalarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy qurilish texnologiyalari va materiallarini tatbiq etish, soha uchun kadrlar tayyorlash

tizimini tubdan isloh qilish zarur. Shuningdek, tenderlar oʻtkazishning aniq mezonlarini ishlab chiqish va sohada axborot texnologiyalarini keng joriy etish kerak.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda qurilish sohasini 2025 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqsin.

**Uchinchidan,** bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar koʻrishimiz lozim.

Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qoʻllash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta’minotlar boʻyicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda.

2020 yildan boshlab har bir bankda keng koʻlamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida boʻladi.

Bank tizimida tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlaydigan “loyihalar fabrikasi” faoliyatini yoʻlga qoʻyishimiz lozim.

Banklarimiz xalqaro moliya bozorlariga chiqib, arzon va uzoq muddatli resurslar olib kelishi zarur. Milliy bank va Ipoteka bank bu yil oʻz yevrobondlarini chiqarishi maqsadga muvofiqdir.

Davlat ulushiga ega boʻlgan banklar bosqichma-bosqich strategik investorlarga sotiladi.

Bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi – tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga oʻrgatishdan iborat.

Soha uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash maqsadida Bank-moliya akademiyasi xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda toʻliq qayta tashkil etiladi. Shuningdek, davlat banklarida zamonaviy bank amaliyoti, menejmenti va xizmatlarini joriy etish uchun rahbarlik lavozimlariga xorijiy yetakchi moliya institutlarining malakali mutaxassislarini jalb etish boshlandi va bu jarayon izchil davom etadi.

Banklarda axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta’minotini tubdan yangilash lozim. Shu yil 1 iyulga qadar “kredit tarixi” axborot

tizimini to‘liq ishga tushirish zarur.

Aholida bank tizimiga nisbatan ishonchni shakllantirish va banklar faoliyatiga chetdan aralashishga chek qo‘yish kerak.

**To‘rtinchidan,** barqaror iqtisodiy o‘sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko‘paytirish, tranzit salohiyatidan to‘liq foydalanish hisoblanadi.

Bu yil eksportyorlarga kafillik beradigan va xarajatlarning bir qismini qoplaydigan – Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda eksportni oldindan moliyalashtirish uchun – Eksport-kredit agentligi tashkil etiladi. Shuningdek, eksport qilishda zamonaviy sug‘urta xizmatlari yo‘lga qo‘yiladi, avtomobil va havo transporti xarajatlarini qisman davlat tomonidan qoplab berish mexanizmi joriy qilinadi.

Tashqi savdo bilan bog‘liq nazorat tizimi va infratuzilmani yaxshilash zarur. Jumladan, xorijiy tajribadan kelib chiqib, bojxona postlarida nazoratni amalga oshiradigan bojxona, sanitariya, karantin, veterinariya va boshqa idoralar faoliyatini isloh qilish lozim.

2020 yilda 3 mingga yaqin standartlarni qabul qilish, ularning sonini 10 mingtaga va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashish darajasini 40 foizga yetkazish darkor. Andijon, Termiz va Qo‘ng‘irot tumanlarida erkin savdo zonalarini tashkil etib, ular orqali chegaraoldi savdosini rivojlantirish zarur.

2020 yilda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G‘alabaning 75 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanadi.

Bizning mard, yengilmas va olijanob xalqimiz buyuk G‘alabani ta’minlashga beqiyos hissa qo‘shgani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu qonli urushda jami 1,5 milliondan ziyod O‘zbekiston farzandlari tinchlik va ozodlik uchun mardona jang qilgani, ularning har uch nafaridan biri o‘z yaqinlari bag‘riga qaytmagani, el-yurtimizning front ortida ko‘rsatgan jasoratini xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Biz urush va front orti faxriylarini faqatgina bayramlarda emas, balki doimo e’zozlab, ardoqlashimiz, ularning sog‘ligi haqida har kuni, har soatda o‘ylashimiz

lozim. Joriy yilda ularga har tomonlama e’tibor yanada kuchaytiriladi. Jumladan, mamlakatimizning eng yaxshi sanatoriylarida ularning salomatligini mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratamiz.

Urush yillarida xalqimiz ko‘rsatgan haqiqiy jasorat va matonatni kino, teatr san’ati, badiiy-publitsistik asarlar, ilmiy tadqiqotlar orqali ko‘rsatish, aholi, ayniqsa, yoshlarimizga ta’sirchan tarzda yetkazish bo‘yicha katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Toshkent shahrining Olmazor tumanida muhtasham “G‘alaba bog‘i” bunyod etilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, Xotira va qadrlash kuni va G‘alabaning 75 yilligini har tomonlama munosib va yuqori saviyada nishonlash uchun tayyorgarlik ishlarini puxta tashkil etishimiz kerak.

## 4-mavzu. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo‘nalishlari.

**Reja:**

1. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilib borishining falsafiy muammolari.
2. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar hamkorligi.
3. Dunyoning nufuzli reytinglarida O‘zbekiston Respublikasining yuqori o‘rinlarda qayd etilishi.
4. Harakatlar strategiyasi jahon sivilizatsiyasiga kirib borishning muhim omili.

**Tayanch tushunchalar**: *Xalqaro tashkilot, Terrorizm, separatizm , ekstremizm, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, innovatsiya.*

1.O‘zbekiston Respublikasi 1991 yilda istiqlolga erishgandan so‘ng, xalqaro munosabatlar tizimida o‘z o‘rni va nufuzini belgilash borasida faol tashqi siyosati olib bora boshladi. Bu davrda xalqaro hamkorlikni yo‘l ga qoyish dolzarb vazifaga

aylandi. Xalqaro hamkorlik esa dunyo davlatlari hamda turli xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro teng huquqli va manfaatli hamkorlikni talab etadi. Mamlakatimiz mustaqillikning birinchi yillaridan nufuzli xalqaro va moliyaviy tashkilotlarga a’zo bo‘ldi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 180 dan ortiq mamlakat tan oldi, ulardan 120 tasi bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Hozirgi kundaToshkentda dunyoning 42 ga yaqin davlatlarning elchixona va konsulxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Dunyoning 30 ga yaqin mamlakatida O‘zbekistonning elchixona, konsulxonalari ishlab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi 1992 yil 2 martdan buyon BMTning, ko‘plab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tuzilmalarning a’zosidir. Birlashgan millatlar tashkiloti (OON) va uning ixtisoslashgan muassasalari YuNISEF, YuNESKO, butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (VOZ), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO), Yevropa ittifoqi (YeI), iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ESO), mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli tuzilmalar shular jumlasidandir. Milliy va harbiy xavfsizlikni to‘liq ta’minlashga siyosiy, iqtisodiy, axborot hamda davlat faoliyatining boshqa sohalarida olib boriladigan keng qamrovli chora-tadbirlar bilan erishilishini inobatga olib, mamlakat rahbariyati, jumladan, mudofaa sohasida ham meyortiv bazani barpo etishga e’tiborni kuchaytirdi.

Mamlakat manfaatlariga mos keladigan, uning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini mustahkamlashga xizmat qiladigan tashqi siyosat yo‘nalishlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq birinch prizidentimiz Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda og‘ishmay amalga oshirila boshlandi. O‘zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri – mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va uning barqarorligiga tahdid solayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkobiznes kabi tahdidlarning har qanday ko‘rinishiga qarshi qat’iy kurash olib borishdan iborat.

Yadro xomashyo zaxiralariga ko‘ra dunyoda oldingi o‘rinlarda turadigan

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab, ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik borasida izchil siyosat yuritmoqda. Yadroviy davlatlar – Rossiya federatsiyasi, Xitoy, Hindiston va Pokiston bilan bevosita chegaradosh bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun mazkur masala juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun yadro qurolini tarqatmaslik borasidagi siyosat mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta’minlash borasidagi O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan sanaladi. 1998 yilda Hindiston va Pokistonda o‘tkazilgan yadro quroli sinovlari Respublikamiz rahbariyatining mintaqa yadroviy xavfsizligiga tahdidlar borasidagi bashoratlari to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi. Chunki O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti 1993 yilda BMT bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish tashabbusi bilan chiqqan edi.

Ma’lumki, bugungi kunda dunyoda beshta yadrosiz hudud mavjud bo‘lib, u o‘z ichiga 100 dan ortiq davlatlarni qamrab oladi va dunyo xaritasini deyarli yarmini qoplaydi. Markaziy Osiyoda mazkur hududning tashkil etilishi esa o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga egadir. Birinchidan, bu hudud yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlarni qamrab oladi; ikkinchidan, bu hudud birinchi bo‘lib dunyoning shimoliy yarim sharida tashkil etiladi; uchinchidan, mazkur shartnoma xavfsizlik sohasida barcha mintaqa davlatlarini birlashtiruvchi ko‘p tomonlama kelishuv hisoblanadi. Va, nihoyat, dunyo tajribasida birinchilardan bo‘lib yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar (Rossiya, Xitoy) bilan chegaradosh mintaqada tashkil etiladi (hududning umumiy maydoni 3 mln. 882 ming kv.km.).

Mazkur shartnomaning imzolanishi mintaqa davlatlariga yadro quroli va uning qismlarini hududda ishlab chiqarish, sotib olish va joylashtirmaslik majburiyatini yuklaydi. Ammo yadrodan tinchlik yo‘l ida foydalanishni man etmaydi. Darhaqiqat, shartnoma xalqaro terrorizmga qarshi kurashda va terroristlarning yadro texnologiyalariga ega bo‘lishining oldini olishda katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston mazkur tashkilot doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurash boyicha ham faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi

kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda ustuvor hisoblanadi. O‘zbekiston BMTning terrorizmga qarshi kurash boyicha 12 ta konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasidagi yana bir muhim yo‘nalishi Yevropa ittifoqi davlatlari bilan munosabatlaridir. 1996 yil fevral oyida YeI kengashi O‘zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik va sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvni imzolash borasida tashqi ishlar vazirlari darajasida muzokaralar olib bordi. Shu yilning iyul oyida Italiyaning Florensiya shahrida bu bitim imzolandi. Bu mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash yo‘l idagi muhim qadamdir. Tomonlar o‘zaro munosabatlarning huquqiy asosini yaratib, hamkorlikning yangi bosqichiga olib chiqdilar. Ushbu kelishuv O‘zbekiston va mintaqa davlatlari uchun iqtisodiy, fan-texnika, madaniy, siyosiy aloqalarni mustahkamlash uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi NATO bilan 1991 yil 21 dekabrdan, Alyansning hamkorlikni rivojlantirish borasidagi tashabbusi natijasida tashkil etilgan shimoliy Atlantika kengashiga qo‘shilganidan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. 1994 yil 13 iyulda O‘zbekiston NATOning «Tinchlik yo‘l ida hamkorlik dasturi»ga a’zo bo‘ldi. 1995 yil 8 avgustda NATOda O‘zbekistonning mazkur tashkilot faoliyatidagi ishtirokiga bag‘ishlangan anjumanda Alyans bilan bo‘lajak hamkorlikning samarali bo‘lishi uchun zarur jihatlar, maqsadlar belgilab olindi va ularni amalga oshirish yo‘l lari ishlab chiqildi. 1996 yil 24 iyulda O‘zbekiston «Tinchlik yo‘l ida hamkorlik dasturi» shartnomasini imzoladi. NATO bilan O‘zbekiston o‘zaro aloqalari mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishida o‘rnatilgan bo‘lib, «Tinchlik yo‘l idagi hamkorlik» va «Yevro-Atlantika hamkorligi kengashi» dasturlari asosida olib borilmoqda.

O‘zbekiston tashqi siyosatida mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (SNG), Shanxay hamkorligi tashkiloti (ShOS), Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YevrAzeS), Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) kabi mintaqaviy uyushmalar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuni ta’kidlash lozimki, bu tashkilotlar bilan hamkorlik mintaqada

xavfsizlik, tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridanoq xavfsizlik masalasi boyicha MDH davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini yoqlab chiqdi[3]. Bu harakatlar natijasida 1992 yil 15 mayda Toshkentda MDHning 6 ishtirokchisi (Armaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston) o'rtasida kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma (KXSh) imzolandi. 1993 yilda ular safiga Gruziya va Ozarbayjon ham qo'shildi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasining kollektiv xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan faoliyati Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShXT) doirasida amalga oshirilmoqda. Mazkur masala yuzasidan ular o'rtasida "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi" imzolandi. Shanxay hamkorligi tashkilotini tuzish haqidagi deklaratsiyaning 8-bandida: "Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqaviy xavfsizlikka ustuvor ahamiyat qaratgan holda, uni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar va harakatlarni qo'llaydi" deb ko'rsatib o'tiladi.

2002 yil 7 iyunda Sankt-Peterburg shahrida tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan mazkur tashkilotning Xartiyasi (nizomi) qabul qilindi. Shundan so'ng, tashkilot xalqaro yuridik maqomga ega bo'ldi. 2003 yil 29 mayda tashkilotning Moskva sammitida 2004 yilning yanvar oyidan ShXTning Pekindagi Kotibiyati va Toshkentdagi mintaqaviy antiterroristik tuzilmasining ijroiya qo'mitasi ish boshlashi borasida qaror qabul qilindi. Bugungi kunda yadroviy, kimyoviy, biologik, axborot terrorizmi kabi hodisalarga qarshi kurashga zarurat tug'ildi. Bu holatni hisobga olgan holda, ShXT doirasida mintaqaviy xavfsizlik tahdidlarining oldini olish va ta'minlash maqsadida mintaqaviy xavfsizlik tizimi vujudga keltirildi.

O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurash boyicha xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston bu

---

[3] Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston. 1997. 320-321 betlar

borada xalqaro huquq meyorlariga asosan faoliyat olib borish pozitsiyasida turadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi 2000 yil 15 dekabr kuni “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun qabulqildi.

Mazkur qonunning 2-moddasiga ko‘ra, terrorizm “kuch ishlatish, tahdid solish va turli salbiy ta’sir ko‘rsatish bilan shaxs hayoti, sog‘lig‘iga xavfs olish va davlat va jamiyatning manfaatlariga tahdid solish”dir. U siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Shu sababli bunday sharoitda davlatning kuch ishlatishdan tiyilishi mushkul.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda olib borayotgan ko‘p tomonlama munosabatlarida xavfsizlikni ta’minlash masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va uning barqarorligiga tahdid solayotgan terrorizm, narkobiznes, diniy ekstremizm kabi tahdidlarning har qanday ko‘rinishiga qarshi qat’iy kurash olib borishdan iborat.

Bu jihatdan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72- sessiyasidagi nutqi hech mubolag‘asiz, g‘urur va iftixor bilan aytish mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan buyon o‘tgan qisqa davr ichida mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida munosib o‘rinni egallaganini yana bir bor yaqqol namoyon qildi, deyishimiz uchun barcha asoslar bor.

O‘zbekistonning butun dunyodagi o‘rni va nufuzini yaqqol namoyon etgan ushbu nutq, bir tomondan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning maqsad-muddaolari va yo‘nalishlarini yaqqol ifodalagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, davlatimizning ichki va tashqi siyosat tamoyillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT bilan munosabatlari aniq-tiniq belgilab berilgan, ulkan nazariy va amaliy ahamiyatga molik tarixiy hujjatdir.

Prezidentimiz nutqida mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi, O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va uning ustuvor yo‘nalishlari, ushbu tamoyillar asosida amalga oshirilayotgan faoliyatning maqsad-muddaolari bilan bog‘liq masalalarga alohida ahamiyat qaratilgan. Darhaqiqat, ushbu hujjatga

tayanib fikr yuritadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasining istiqlol yillaridagi taraqqiyoti va bugungi rivojlanish davrining eng muhim xususiyatlaridan biri, mamlakatimizning jahon hamjamiyati, uzoq va yaqin davlatlar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatib, o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosat olib borayotganidir.

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi, bir tomondan, yangi mustaqil davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqish va turli davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘z milliy manfaatlarini himoya qilishda keng imkoniyatlar yaratayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlatlarning bir-biriga yaqinlashuvi hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchayishi natijasida bu jarayonda ma’lum bir mintaqadagi turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy muammolar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalmoqda va o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Vaziyat tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar, ya’ni noan’anaviy tahdidlarning an’anaviy tahdidlar bilan o‘zaro uyg‘unlashuvi tufayli murakkablashmoqda. Bunday vaziyatda yuzaga kelgan siyosiy voqelikni chuqur ilmiy tahlil etish, geosiyosiy jarayonlarda mamlakatimizning o‘rni va ahamiyatiga to‘g‘ri baho berish, milliy xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish hamda mamlakat xavfsizligiga tahdid solayotgan tashqi va ichki omillarini aniqlash muhim vazifalardan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’ektiga aylandi. Ko‘plab Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni o‘rnatdi. Bugungi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va bir qator davlatlararo va nohukumat xalqaro tashkilotlar, xalqaro moliyaviy istitutlar bilan keng qamrovli aloqalarni izchil rivojlantirib kelmoqda. Bu boradagi ilk qadam 1992 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zolikka qabul qilinishdan boshlandi. Mazkur tashkilot doirasidagi o‘zaro aloqalar mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va o‘zaro hamkorlikka qaratilgan bo‘lib, unda xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy qurol savdosi kabi omillarga birgalikda qarshi kurashish ustuvor yo‘nalish

hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining barcha hamkorlari bilan munosabatlari qonuniy va ustuvor tamoyillar asosida amalga oshirilishi davlat Konstitutsiyasining 17-moddasida kafolatlangan. Xususan, «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati uchun mas’ul bo‘lgan idoralarning asosiy vazifasi bu - Birlashgan Millatlar tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning, Yevropa, Osiyo va xalqaro xavfsizlikni ta’minlovchi tuzilmalar faoliyatida faol ishtirok qilishidir» - deb belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, mamlakatimiz BMTning teng huquqli a’zosi sifatida uning ixtisoslashtirilgan, ya’ni Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki, Sog‘liqni saqlash tashkiloti, fan, ta’lim va madaniyat bo‘yicha xalqaro tashkiloti - YuNESKO va boshqa qator tashkilotlarning a’zosi hisoblanadi. Ushbu tashkilot bugungi kunda o‘z safida 193 ta davlatni birlashtirgan holda mintaqaviy mojarolarni hal qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratishda va atrof-muhitni muhofaza etishda muhim o‘rin tutadi.

BMTning Bosh Assambleyasi sessiyasida Prezidentimiz Markaziy Osiyo, balki butun dunyo uchun dolzarb bo‘lgan muammolarni ushbu tashkilot bilan birgalikda hal etish tashabbusi bilan chiqishi respublikamiz tashqi siyosatning tinchlikparvar ekanligini ko‘rsatdi. Jumladan, bu borada ma’ruzada quyidagilar alohida ta’kidlandi:

- BMTning bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o‘rin tutishiga erishish yo‘lida barcha choralarni ko‘rish.
- Dunyo davlatlarining xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik bo‘yicha BMTning doimiy shafeligida ishlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- BMTning tinchliksevar faoliyatini, ayniqsa mojarolar chiqadigan joylarda tinchlik o‘rnatish faoliyatini yanada kuchaytirish;

- O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha ishlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘la hamohangligini ta’minlash;
- O‘zbekistonning ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdori sifatida BMT Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish taklifini qo‘llab-quvvatlash;
- inqirozli vaziyatlarning oldini olish va ogohlantirish maqsadida BMTning mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarini faollashtirish, BMT mintaqaviy tuzilmalarini rivojlantirish.
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash;
- O‘zbekistonning BMT tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettirishi; .
- Bosh kotib Antoniu Guterrishning yaqinda O‘zbekistonga tashrifi yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan "yo‘l xaritasi"ning amaliy ijrosini ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rish.

Przidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida ta’kidlangan ushbu yo‘nalishlardagi islohotlarning BMT doirasida olib borilishi oxir-oqibat tashkilot faoliyatini kuchaytirishga olib kelishi shubhasiz.

Bugungi kunda mamlakatimiz mazkur tashkilot doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha ham faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda ustuvor hisoblanadi. O‘zbekiston BMTning terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha konvensiyalarining ishtirokchisi hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylantirish muammosi yuzaga qalqib chiqmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to‘laqonli bo‘g‘iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta’sirchan vositaga aylantirish vazifasi dolzarb bo‘lib

qolmoqda. G‘arbda ommaviy axborot vositalariga qo‘pol bo‘lsa ham jamiyat manfaatlarini “qo‘riqlovchi ko‘ppak”, deb nisbat beradilar. Yetuk demokratik davlatlarda ular jamiyatning “ko‘zlari”, “quloqlari” vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko‘tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan.

Bunday sharoitda yot g‘oyalarga qarshi kurashni bir daqiqa ham susaytirib bo‘lmaydi. Targ‘ibotchi-tashviqotchi, tarbiyachi, o‘qituvchi, olim, shoiru-yozuvchilar yoshlar bilan suhbat va uchrashuvlarda, ommaviy axborot vositalari oqali mamlakatimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy tahdidlarni, xurujlarni, uydirmalarni fosh qilish, yosh avlod qalbi va ongida ezgu g‘oyalarga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratishlari lozimligi bugungi davrning talabiga aylangani shubhasiz.

Hozirgi davrda mamlakatimizda shakllangan qonunchilik tizimida yoshlarni, jumladan o‘quvchi va talabalarni ham yot va begona g‘oyalar oqimidan, nosog‘lom axborotlardan himoyalash mexanizmlari belgilab qo‘yilgan. Xususan, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda esa pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini taxqirlovchi, bolalar ongiga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi belgilangan.

Bu yo‘nalishda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda keyingi yillarda bu borada ham muhim hujjatlar qabul qilinmoqda va rejali ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 15 avgustda qabul qilingan va Senat tomonidan 2017 yil 24 avgustda ma’qullangan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun nihoyatda muhim ahamiyatga molikdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 8 sentabrda imzolangan № O‘RQ–444 sonli ushbu Qonunning maqsadi bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish

sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, u shu sohadagi tayanch tushuncha va tamoyillarni ta’riflash va tavsiflash uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Alohida ta’kidlash kerakki, bu borada 1992 yilda tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi mamlakatimizda millatlararo munosabatlarga bo‘lgan e’tibor va g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasi bo‘ldi. Hozirgacha ushbu markaz O‘zbekiston hududida faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirdi hamda ularga tashkiliy va metodik yordam ko‘rsatdi. Ushbu ko‘rinishda o‘tgan yillarda Baynalmilal madaniyat markazining asosiy vazifasi millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillarining milliy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, har bir millatga xos urf-odat va an’analarni saqlab qolishda milliy madaniy markazlarga ko‘maklashish, bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘ldi. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan bunday tuzilmaning qo‘shni davlatlarning birortasida mavjud bo‘lmagani O‘zbekistonda bu masalaga alohida e’tibor qaratganidan dalolat beradi.

O‘tgan yillarda ushbu madaniyat markazi O‘zbekistonda yashayotgan turli millat farzandlarining uchrashuv joyi, o‘ziga xos do‘stlik uyiga aylandi. Bu yerda muntazam ravishda turli xalqlarning bayramlari, festivallar, uchrashuvlar, taniqli madaniyat arboblarining chiqishlari, seminarlar, konferensiyalar o‘tkazib turildi. Bu boradagi faoliyatda "O‘zbekiston - umumiy uyimiz" degan da’vatning ustivorligi mamlakatimizda bir maqsad yo‘lida yashab, mehnat qilib kelayotgan barcha millat va elat vakillarining umumiy shiorigina emas, balki ularning asosiy maqsad – muddaosining o‘ziga xos ifodasi hamdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2017 yil 23 maydagi PQ-2993-son qaroriga muvofiq milliy madaniy markazlar, do‘stlik jamiyatlari, ijodiy uyushmalar, davlat tashkilotlari va nodavlat notijorat

tashkilotlarning faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar bo‘yicha qo‘mita tuzildi. Qo‘mitaga jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni ta`minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, dunyo hamjamiyati bilan do‘stlik aloqalarini mustahkamlash kabi vazifalar yuklatildi.

Yangi idora Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, Respublika baynalmilal markazi hamda do‘stlik jamiyatlari va xorijiy davlatlar bilan madaniyma’rifiy aloqalar kengashi negizida tashkil etildi. Farmon jamiyatda barqarorlik, tinchlik va hamjihatlikni ta`minlash, fuqarolar ongida yagona ko‘p millatli katta oilaga mansublik hissini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bu kabi barcha dinlarning rivojlanishi uchun bab-barobar shart-sharoitlar yaratilgan, turli xil diniy tashkilotlar vakillarining bir-birlari bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishlari va hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishlariga yaqindan yordam ko‘rsatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida dinlararo va millatlararo do‘stona munosabatlar rishtasini yanada mustahkamlashga insonlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillarini singdirishga qaratilgan izchil siyosatni amalga oshirishga xizmat qiladi. Natijada odamlarning dunyoqarashi o‘zgarib borayapti, Diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va turli konfessiyalar o‘rtasida murosa sharoitini mustahkamlashga qaratilgan faoliyat o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Bugungi kunda jamiyat ma’naviy hayot dinamikasi uchun davlat va diniy tashkilotlar orasidagi munosabatning quyidagi to‘rt jihati nihoyatda muhim ahamiyatga ega:

1) davlat diniy tashkilotlarga hech bir vazifa yuklab, uni bajarishni talab qilmaydi;

2) diniy tashkilotlarning ishlariga aralashmaydi va ularning qonunga zid bo‘lmagan faoliyatini cheklamaydi;

3) diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi;

4) davlat diniy tashkilotlar faoliyatini mablag‘ bilan ta’minlamaydi.

